


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

**“Milliy g'oya va falsafa”
kafedrasi**

AXLOQSHUNOSLIK



Guliston-2014

Mahmudov R., Ismoilov S. Axloqshunoslik

№	Mavzular nomi	Ko'riladigan masalalar	Va'z
1	Axloqning bahs mavzusi	1.Axloq tushunchasi, uning paydo bo'lishi va axloqiy fikrlar taraqqiyot bosqichlari. 2.Axloqning bahs mavzusi, tuzilishi, vazifalari va funktsiyalari. 3.Axloq fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi.	2
2	Uyg'onish davri Markaziy Osiyo mutafakkirlarining axloqiy qarashlari	1.Uyg'onish davri tushunchasi. (IX-XII. XIV-XV asrlar), Islom va tasavvuf axloqi. 2.Markaziy Osiyo mutafakkirlari: Forobiy, Beruniy, Ibn Sinoning axloqiy qarashlari. 3.Amir Temur va temuriylar davri axloqshunosligi: Navoiy va Koshifiyning axloqiy qarashlari.	2
3	Axloqning kategoriyalar tizimi	1.Axloqshunoslikning asosiy kategoriyalari haqida umumiy tushuncha. 2.Axloqiy kategoriya, tamoyillar va me'yorlarning mohiyati. 3.Axloqiy kategoriyalarning inson va insoniyat jamiyat hayotidagi ahamiyati.	2
4	Axloqiy tarbiya va unga qo'yiladigan talablar	1.Axloqiy tarbiya tushunchasi. 2.Axloqiy tarbiyaning tarbiya tizimidagi o'rni. 3.Shaxsni komil inson qilib tarbiyalashdagi vositalar.	2
		JAMI:	8

Seminar mashg'ulotlar mavzusi:

№	Mavzular nomi	Ko'riladigan masalalar	Soat
1	Uyg'onish davri Markaziy Osiyo mutafakkirlarining axloqiy qarashlari	1.Forobiyning fozil inson haqidagi ta'limoti. 2.Beruniy va Ibn Sinoning axloqiy qarashlari. 3.Navoiyning komil inson g'oyasi. 4.Koshifiyning mukammal inson haqidagi ta'limoti.	2
2	Islom axloqi	1.Islom dinining vujudga kelishi, tarqalishi va islomshunoslik. 2.Sharq falsafasida diniy axloqshunoslik. 3.Tasavvuf axloqi. 4.Islom axloqini o'rganishning tarbiyaviy ahamiyati.	2
3	Axloqning kategoriyalar tizimi	1.Axloq fanining kategoriyalari haqida umumiy ma'lumot. 2.Yaxshilik va yomonlik, adolat, burch, vijdon. 3.Or-nomus, baxt, hayotning ma'nosi. 4.Axloqiy kategoriyalarning amaliyotda namayon bo'lishi.	2
4	Nikoh va oilaning axloqiy asoslari	1.Oila tushunchasining ta'rif va talqini. 2.Mustaqillik va oila muammolari. 3.Oilada bola tarbiyasi. 4.Oila kodeksi.	2

		JAMI:	8
--	--	--------------	----------

Mustaqil o'rganiladigan mavzular:

№	Mavzular nomi	Ko'riladigan masalalar
1	Islom axloqi	1. Islom axloqini asosiy xususiyatlari. 2. Islom komil inson axloqi haqida. 3. Qur'oni karim va Hadislarda axloq masalasi. 4. Islom axloqi va hoziri zamon.
2	Axloqshunoslikning kategoriyalar tizimi	1. Axloqning asosiy kategoriyalar tizimi. 2. Axloqning bosh va asosiy kategoriyalari. 3. Axloqning asosiy tamoyillari. 4. Axloqiy qoidalar.

AXLOQShUNOSLIK
fanidan reyting ishlanma va baholash mezonlari:

Nazorat turlari	Nazorat soni	Ajratilgan ball	Jami
I (Joriy nazorat)	4	40	40
1.1. Seminar	9	2	18
1.2. Umumiy so'rov	1	2	2
1.3. Test	2	4	8
1.4. TMI	3	4	12
II(Oraliq nazorat)	4	30	30
2.1. Nazorat ishi	2	4	8
2.2. Referat	1	8	8
2.3. Konspekt	1	6	6
2.4. TMI	2	4	8
III (Yakuniy nazorat)	1	30	30
3.1. Yozma ish	1	30	30
Jami:	9	100	100

AXLOQShUNOSLIK
fanidan
BAHOLASH MEZONLARI

1. Joriy baholash bo'yicha:

1.1.Seminar mashg'ulotlardagi topshiriqlarni to'la bajargan talabaga 2 ball, to'la bajarmagan bo'lsa 1-1,5 ball beriladi.

1.2.Umumiy so'rovda kurs bo'yicha berilgan savollarning javobi to'liqligiga qarab 2 balgacha baholanadi.

1.3.Test sinovi 2 marta o'tkaziladi, talabalar o'z variantidagi 8 ta savolga javob beradilar, har bir to'g'ri javob uchun 0,5 ball oladilar.

1.4.Talabalar mustaqil ishida bajargan ishining mazmuniga karab, har bir mustaqil ishga 4 ballgacha ball beriladi.

2. Oraliq baholash bo'yicha:

2.1.Nazorat ishi ikki marta o'tkaziladi, har birida variantlar asosida 2 tadan savol beriladi. Har bir savol 1 balgacha baholanadi.

2.2.Referat Axloqshunoslik fani yuzasidan tavsiya etilgan mavzular bo'yicha yoziladi. Referatda tavsiya etilgan mavzu to'liq ochilgan, to'g'ri xulosa chikarilgan va amaliy takliflari bo'lsa 8-7

ball, mavzu mohiyati ochilgan, xulosasi bor bo'lsa 6-5 ball, mavzu mohiyati yoritilgan lekin kamchiligi bo'lsa 4-3 ball, referat juda qisqa va mazmuni sayoz bo'lsa 2-1 ball beriladi.

2.3. Konspekt Dinshunoslik fanidan yoziladi. Konspektda talabalarining o'zlariga berilgan mavzular bo'yicha ma'lumotlarni yoritib, to'liq izohlab va tahlil eta olsa 6 ball, faqat ma'lumotlarni olib tavsiya etsa 5-4 ball, olingan ma'lumotlar mazmuni to'liq bo'lmasdan tavsiya etsa 3 ball beriladi. Konspekt faqat ko'chirilgan bo'lsa 2-1 ball qo'yiladi.

3. Yakuniy baholash bo'yicha:

3.1. Yakuniy baholashda yozma ish sinovi o'tkaziladi, bunda talabalar 3 ta savolga javob beradilar, xar bir to'g'ri javob uchun 10 baldan beriladi.

FANNI O'QITISH UCHUN TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI ISHLAB CHIQUISHNING KONTSEPTUAL ASOSLARI

“Axloqshunoslik” o'quv kursi bo'yicha yuqori ilmiy-pedagogik darajada tashkil etilishi, muammoli mashg'ulotlar o'tkazish, darslarni savol-javob tarzida tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va multimedia qo'llanmalardan foydalanish, talabchanlik, talabalar bilan yakka tartibda ishlash, erkin muloqotga kirishishga jalb qilish va boshqa tadbirlar ta'lim ustuvorligini ta'minlaydi.

Fanning maqsadi. Talaba-yoshlarda bilim, ko'nikma va malakalar tizimini tarkib toptirish va shakllantirish.

Fanni o'qitishning vazifalari. Maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish lozim bo'ladi: talabalarga axloq haqida, uning manbalari va asoslari, tarixiy rivojlanishi, axloq taraqqiyot bosqichlarini ko'rsatib berish, shuningdek, axloq masalasidagi Prezidentimizning kontseptual g'oyalari, ta'riflarini o'rganishdan iboratdir. Bulardan tashqari mazkur fanni o'rganish davomida talabalar axloqning turlari, milliy va umuminsoniy axloq va ular o'rtasidagi aloqadorlik, Markaziy Osiyolik buyuk ajdodlarimizning ma'naviy qarashlari, mustaqillik yillarida ma'naviy sohaga berilgan e'tibor haqida atroflicha ma'lumot oladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. O'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondashishga e'tibor qaratishni amalga oshiradi. Har bir talabaning shaxs sifatida kasbiy takomillashuvini ta'minlaydi. Ta'limning markaziga bilim oluvchi qo'yiladi.

Tizimli yondashuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyliqi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi bilim olish va kasb egallashning mukammal bo'lishiga hissa qo'shadi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatini jadallashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida barcha qobiliyat va imkoniyatlarni, tashabbuskorlikni ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi. Egallangan bilimlarning ko'nikma va malakaga aylanishi, amaliyotda tatbiq etilishiga sharoit yaratadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratilik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi sub'ektiv munosabatlarda hamkorlikni, maqsad va faoliyat mazmunini shakllantirishda erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi. Ta'lim jarayonida “sub'ekt-sub'ekt” munosabatlari tarkib topadi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob'ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni ta'minlaydi. Muammoli savol, vazifa, topshiriq va vaziyatlar yaratish va ularga echim topish jarayonida ongli, ijodiy, mustaqil fikrlashga o'rgatiladi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash - hozirgi axborot kommunikatsiya texnologiya vositalari kuchli rivojlangan sharoitda ulardan to'g'ri va samarali foydalanish, axborotlarni tanlash, saralash, saqlash, qayta ifodalash ko'nikmalari hosil qilinadi. Bu jarayonda kompyuter savodxonligi alohida ahamiyat kasb etadi.

O'qitish metodlari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoviy usul, keys-stadi, pinbord, paradokslar, loyiha va amaliy ishlash usullari.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy vositalari (darslik, ma'ruza matni, ko'rgazmali qurollar, xarita va boshqalar) bilan bir qatorda – axborot-kommunikatsiya texnologiya vositalari keng ko'lamda tatbiq etiladi.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ ikki yoqlama (teskari) aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlarning yo'lga qo'yilishi.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blits-so'rov, joriy, oraliq va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi amalga oshiriladi.

Boshqarish usullari va tartibi: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik xarita ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati tartibli yo'lga qo'yiladi.

Monitoring va baholash: butun kurs davomida ham o'qitish natijalari reyting tizimi asosida nazorat va tahlil qilib boriladi. Kurs oxirida yozma ish yordamida ta'lim oluvchilarning bilimlari baholanadi.

LEKTSIYALAR KURSI

1-Mavzu. AXLOQ FANINING PREDMETI VA ASOSIY VAZIFALARI Fanni o'qitish texnologiyasi: "Axloq fanining predmeti va asosiy vazifalari" mavzusidagi ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

TG 'r	Bosqichlar va bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt
1	Tayyorlov bosqichi: 1.1 Dars maqsadi: Talabalarga axloq tushunchasi, uning mohiyati, asosiy maqsadi va vazifalari, jamiyatda tutgan o'rni haqida ma'lumot berish. 1.2. Identiv maqsadlar: 1.2.1. Axloq tushunchasiga ta'rif bera oladi. 1.2.2. Axloqning inson hayotidagi o'rnini ochib beradi. 1.2.3. Axloqning turli talqinlarini izohlay oladi. 1.2.4. Prezident asarlarida axloq masalalarining yoritilishini tushuntiradi. 1.3. Asosiy tushuncha va iboralar: hayot, hayotning iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy jabhalari, axloqning talqinlari, axloq kursning bosh vazifasi va vazifalari, milliy axloq. 1.4. Dars shakli: guruh va mikroguruhlarda. 1.5. Foydalaniladigan metod va usullar: suhbat, ma'ruza-hikoya, baxs, videousul. 1.6. Kerakli jihoz va vositalar: Ko'rgazmali qurollar, xarita, tarqatma materiallar.	O'qituvchi
2	O'quv mashg'ulotni tashkil qilish bosqichi: 2.1. Mavzu e'lon qilinadi. 2.2. Ma'ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi.	O'qituvchi, 15 minut
3	Guruhda ishlash bosqichi: 3.1. Talabalarga muammoli savol beradi. 3.2. Talabalar fikri eshitiladi, boshqa talabalar baxsga chaqiriladi. 3.3. Umumiy xulosalar chiqariladi va to'g'riligi tekshiriladi. 3.4. Umumiy xulosaga kelinadi.	O'qituvchi- talaba, 40 minut
4	Mustahkamlash va baholash bosqichi: 4.1. Berilgan ma'lumotni talabalar tomonidan o'zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi: -Axloqning bahs mavzusi deganda nima tushiniladi? -Axloqga berilgan ta'riflarni ayting? -Axloqning talqinlarini ayting? -Kursni barkamol avlod tarbiyasidagi o'rni nimalardan iborat? 4.2. Eng faol talabalar (baholash mezonida) baholanadi.	O'qituvchi, 15 minut
5	O'quv mashg'ulotini yakunlash bosqichi: 5.1. Talabalar bilimi tahlil qilinadi. 5.2. Mustaqil ish topshiriqlari beriladi.	O'qituvchi, 10 minut

	5.3. O'qituvchi o'z faoliyatini tahlil qiladi va tegishli o'zgartirishlar kiritadi.	
--	--	--

Asosiy savollar:

1. Axloq tushunchasi uning paydo bo'lishi va axloqiy fikr taraqqiyoti.
2. Axloqning bahs mavzusi, tuzilishi, vazifalari va funktsiyalari.

Tayanch tushuncha va iboralar:

Axloqshunoslik, etika, odob, xulq, axloq, mustaqillik va axloq.

1-asosiy savol: **Axloq tushunchasi uning paydo bo'lishi va axloqiy fikr taraqqiyoti.**

Darsning maqsadi:

Talabalarga axloq tushunchasi, uning paydo bo'lishi va axloqiy fikr taraqqiyotining asosiy bosqichlari haqida tushuncha berish.

Identiv o'quv maqsadlar:

1. Axloq haqida tushuncha bera oladi.
2. Axloqning lug'aviy ma'nosini tushuntira oladi.
3. Axloqni insonga ta'siri haqida ma'lumot beradi.
4. Axloqni paydo bo'lishini so'zlab beradi.
5. Axloqiy fikr taraqqiyotining asosiy bosqichlari to'g'risida ma'lumot beradi.
6. Asosiy bosqichlarni o'ziga xosligi haqidagi fikrlarni izohlaydi.

1 - asosiy savolning bayoni:

Etika – bu axloq nazariyasi bo'lib, kishilarning axloqiy hayotini o'rganadigan, axloqiy hodisalarning o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanish qonuniyatlarini ochib beradigan eng qadimgi insonshunoslik fanlaridan biridir. Etika so'zi yunoncha so'zdan olingan bo'lib «odat», «odob» ma'nosini bildiradi. Uni birinchi marta Aristotel axloqning sinonimi sifatida ishlatgan.

Axloq - arabcha «xulq» so'zining ko'plikdagi shaklidir.

Axloq ibtidoiy jamoa davrida paydo bo'lgan, chunki kishilik jamiyati paydo bo'lishi bilan kishilar o'rtasida axloqiy munosabatlar ham paydo bo'la boshlagan. Kishilardagi axloqiy tushunchalar birdaniga emas, balki asta-sekin davr o'tishi bilan takomillashib borgan. Axloq har bir tarixiy davrda o'ziga xos xususiyat kasb etgan. Davrning xususiyati kishilar axloqida aks etgan. Jamiyatning rivojlanib borishiga, axloq ham mos ravishda taraqqiy etib borgan.

Demak, axloq kishilik jamiyati paydo bo'lishi bilan ya'ni ibtidoiy jamiyatning dastlabki urug'doshlik davrida, qadimgi Sharq mamlakatlari Hindiston, Xitoy va Bobil, Mesopotamiya kabi mamlakatlarda paydo bo'lgan.

Axloqiy fikr taraqqiyotining quyidagi bosqichlari mavjud:

1. Qadimgi Sharq axloqi. (Hindiston, Xitoy, Misr, Bobil, Markaziy Osiyo)
2. Antik davr axloqi. (Rim va Yunon olimlari: Demokrit, Sukrot, Aflotun, Arastu).
3. O'rta asrlar G'arb va Sharq axloqi.
4. Uyg'onish davri axloqi.
5. Ma'rifatparvarlar axloqi. XVIII asrdan XX asrgacha bo'lgan davr.

Axloqshunoslik qadimda fizika va metafizika bilan birgalikda falsafaning uzviy qismi hisoblanar edi. Professor H.Po'latov, «Hindiston dinlari, Yunoniston San'at va falsafani vatani bo'lsa, Markaziy Osiyo axloqini vatanidir», -deb yozgan edi. Keyinchalik Arastudan so'ng alohida falsafiy yo'nalishdagi fan maqomini oldi. Bu fikrni quyidagicha kengaytiribroq talqin etish mumkin. Ma'lumki, falsafaning fanlar podshosi sifatidagi vazifasi barcha tabiiy va ijtimoiy ilmlar erishgan yutuqlardan umumiy xulosalar chiqarib, insoniyatni haqiqatga olib borishdir. Shundan kelib chiqqan holda, falsafaning tadqiqot ob'ektini tafakkur deb belgilash maqsadga muvofiq. Axloqshunoslik esa axloqiy tafakkur taraqqiyotini tadqiq etadi va amaliyotda insonni ezgulik orqali haqiqatga olib borishga xizmat qiladi. Shu bois uni axloq falsafasi yoxud ezgulik falsafasi deb atash mumkin.

Hozir u falsafiy fan sifatida uch yo'nalishda ish olib boradi., ya'ni axloqiy tafakkur taraqqiyotini tadqiq etar ekan, u axloqni: 1) bayon qiladi; 2) tushuntiradi; 3) o'rgatadi. Shunga ko'ra, u tajribaviy-bayoniy, falsafiy-nazariy va rasmona-me'yoriy tabiatga ega. Qadimgilar uni amaliy falsafa deb ataganlar. Zero sof nazariy axloqshunoslikning bo'lishi mumkin emas. U insoniyat o'z tajribasi orqali erishgan donishmandlik namunalarini ya'ni xalq og'zaki ijodi hikmatlar, naqlar, matal-maqolalar tarzida bayon etadi, kishilarni axloqiy qonun-qoidalariga o'rgatadi, ularga axloqning mohiyatini tushuntiradi va falsafiy xulosalar chiqaradi. Ya'ni axloqshunoslik fanida Aflotun, Arastu, Epikur, Tsitseron, Seneka, Farobiy, Ibn Sino, G'azzoliy, Spinoza, Kant, Xegel, Shopengauer, Feyerbax, Kerkigor, Nitshe, singari buyuk faylasuflar yaratgan axloq nazariyasiga doir ta'limotlar bilan birgalikda, «Patanjali», «Qobusnoma», Sa'diyning «Guliston» va «Bo'ston», Jomiyning «Bahoriston», Navoiyning «Mahbub ul-qulub», Montenning «Tajribanoma», Laroshfukoning «Hikmatlar», Gulxaniyning «Zarbulmasal» kabi amaliy axloqqa bag'ishlangan asarlar ham o'zining mustahkam o'rniga ega. Axloqshunoslikning boshqa falsafiy fanlardan farqi ham, o'ziga xosligi ham undagi nazariya bilan amaliyotning omuxtalashganligidadir.

Nazorat savollari:

1. Axloq fani tadqiqot doirasini ayting.
2. Axloqni o'ziga xos falsafiy fan sifatidagi o'rnini izoxlab bering.
3. Axloqning boshqa ijtimoiy fanlar bilan munosabatini ko'rsating.
4. "Axloq" iborasi mazmun-mohiyatini tushuntiring.
5. Xulqni odobdan farqini izohlang.
6. Zamonaviy axloqshunoslik oldida qanday vazifalar mavjudligini taxlil qilib bering.
7. Axloqiy fikirlarni paydo bo'lishi zaminlarini ayting.
8. Axloqiy fikr taraqqiyotining asosiy bosqichlarini sanang.

2-asosiy savol: **Axloqning bahs mavzusi, tuzilishi, vazifalari va funktsiyalari.**

Darsning maqsadi:

Axloqni boshqa fanlar bilan aloqasi va bog'liqligi haqida tushuncha berish.

Identiv o'quv maqsadlar:

1. Axloqni ijtimoiy-falsafiy bilimlar tizimida o'rni haqida gapirib beradi.
2. Axloqshunoslik fani nafosatshunoslik, fani bilan o'zaro aloqasini tushuntirib beradi.
3. Axloqshunoslikni ijtimoiy fanlar bilan munosabatini tushuntiradi.

2-asosiy savolning bayoni:

Axloq - ijtimoiy - falsafiy fan hisoblanib insonlarning dunyoqarashni takomillashtirib ma'naviy barkamol qilib tarbiyalovchi fan hisoblanadi. Jamiyatdagi barcha o'zgarishlar bu fanda aks etadi. U falsafiy fan, chunki insonni hayotda o'z o'rnini topishga yordam beradi. Chunki insonni jamiyatdagi mavqeyi, obro'-e'tibori ham uning axloqlilik darajasi bilan o'lchanadi.

Axloq fani umumiy axloq nazariyasi, axloq tarixi, normativ -aksiologik axloq, kasbiy axloq, axloqiy tarbiya nazariyasi kabi bo'limlarga bo'linadi.

Umumiy axloq nazariyasi-axloqning tabiati, mohiyati, tuzilishi, uning tarkibiy elementlari va ularning o'zaro aloqadorligini, axloqiy ong rivojlanishi xususiyatlarini, axloq taraqqiyotidagi ijtimoiy sababiyatlarini, uning jamiyatda tutgan o'rnini, ahamiyatini o'rganadi.

Tarixiy axloq-axloqning tarixiy shakllarini, uning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini, tarixdagi axloqiy o'rnini tadqiq etadi.

Normativ-aksiologik axloq-konkret axloq qoidalarini, axloqiy zaruriylik talablarini axloqiy ongning asosiy tushunchalari sifatida qarab, ularni ijobiy ahamiyatini o'rganish va asoslash bilan qiziqadi.

Kasbiy axloq-kasb axloqiga izoh berishni, u yoki bu kasbdagi faoliyat doirasida kishilarning o'zaro munosabatlarini tartibga soladigan ma'lum bir axloq normalar tizimini yaratish va asoslash vazifalari bilan shug'illanadi.

Axloqiy tarbiya nazariyasi-tarbiya jarayonida axloqiy omillaridan samarali foydalanish usul va vositalarini aniqlash va ta'lim masalalari bilan shug'illanadi.

Axloq uch tarkibiy qismdan iborat.

Axloqiy ong.
Axloqiy munosabatlar.
Axloqiy tajriba.

Axloqning beshta asosiy funktsiyasi bor.

Aks ettirish.
Boshqarish.
Tarbiyalash.
Baholash.
Bilish

Axloq pedagogika, falsafa, psixologiya, tarix, adabiyot kabi fanlar bilan uzviy bog'liq.

Axloq fanining vazifasi insonlarni zamon talabi asosida komil inson qilib tarbiyalashdan iboratdir.

Prezidentimiz I.Karimov aytganlaridek: "Yoshlar bizdan ko'ra bilimlir va donoroq bo'lishlari kerak. Buning uchun yoshlarni bo'layotgan barcha o'zgarishlardan voqif qilishimiz. Ularni etuk bo'lib etishishlariga bilim olishlariga e'tiborli bo'lishimiz kerak."

Axloqshunoslik boshqa ijtimoiy-falsafiy fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda rivojlanib kelmoqda. Ayniqsa, uning nafosatshunoslik (estetika) bilan aloqasi qadimiy va o'ziga xos. Avvalo, insonning har bir hatti-harakati va niyati ham axloqiylikka, ham nafosatga tegishli bo'ladi, ya'ni muayyan ijobiy faoliyat ham ezgulik (ichki go'zallik) ham nafosat (tashqi go'zallik) xususiyatlarini mujassam qiladi. Shu bois Suqrot, Aflotun, Farobiy singari qadimgi faylasuflar ko'p xollarda axloqiylikni ichki go'zallik, nafosatni tashqi go'zallik tarzida talqin etganlar. Bundan tashqari, ma'lumki, san'at nafosatshunoslikning asosiy tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Har bir san'at asarida esa axloqning dolzarb muammolari ko'tariladi va san'atkor doimo o'zi yashayotgan zamonda erishilgan eng yuksak axloqiy darajani badiiy qiyofalar orqali bevosita yoxud bilvosita aks ettiradi. Demak nafosatshunoslik o'rganayotgan har bir badiiy asar ayni paytda, ma'lum ma'noda, axloqshunoslik nuqtai nazaridan ham tadqiq etilayotgan bo'ladi.

Axloqshunoslikning dinshunoslik bilan aloqasi shundaki, har ikkala fan ham bir xil muammo-axloqiy mezon muammosini hal etishga qaratilgan. Chunki umumjahoniy dinlar vujudga kelgunga qadar mavjud bo'lgan ma'lum urf-odatlar va qadriyatlar muayyan diniy qonun-qoidalarga, muqaddas diniy kitoblarga katta ta'sir ko'rsatgan. Ayni paytda, dinlar ham axloqqa ana shunday ta'sir o'tkazgan.

Chunonchi, islom dinini oladigan bo'lsak, Qur'oni Karim, Hadisi Sharif, ijmo' va muayyan fatvolardagi mezonlar hamda talablar musulmon Sharqi halqlari axloqiy darajasining shakillanishida katta ahamiyat kasb etgan. Shuningdek, komil inson muammosi har ikkala fan uchun umumiy hisoblanadi. Farq shundaki, axloqshunoslik bu muammoga zamonaviy tarbiya nuqtai nazaridan yondoshadi.

Axloqshunoslikning xuquqshunoslik bilan aloqasi uzoq tarixga ega. Ma'lumki juda ko'p xollarda axloq me'yorlari bilan xuquq me'yorlari mohiyatan va mazmunan bir hil bo'ladi. Shunga ko'ra, axloqni jamoatchilik asosidagi xuquq, xuquqni esa qonuniylashtirilgan axloq deb atash mumkin. Zero, axloqshunoslik bilan xuquqshunoslikning tadqiqot ob'ektlari ko'p jihatdan o'xshash, ular faqat yondashuv usuli nuqtai nazaridan farq qiladi, ya'ni xuquq me'yorlarining bajarilishi, odatda, maxsus adliya idoralaridagi lavozimli kishilar orqali, majburiy sanksiyalar vositasida yo'lga qo'yiladi: axloq me'yorlari esa umumiy qabul qilingan milliy urf-odatlar, jamoatchilik fikri yordamida, alohida belgilangan kishilar tomonidan emas, balki muayyan ijtimoiy guruh, jamiyat tomonidan amalga oshiriladi. Shuningdek, xuquqshunoslik kasbi uchun muhim bo'lgan amaliy axloq jihatlarini axloqshunoslikning huquqshunos odobi deb ataladigan maxsus sohasi tadqiq qiladi va tavsiya etadi.

Axloqshunoslik pedagogika bilan ham chambarchas bog'liq. Pedagogikadagi shaxsni shakillantirish, tarbiyalash, ta'lim berish jarayonlarini pand-nasihatlarsiz, odobnoma darslarsiz

tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu bois axloqshunoslik o'zining nazariy va amaliy jihatlari bilan pedagogikaning asosi hisoblanadi. Maorif tizimidagi ta'lim-tarbiya o'zini har bir qadamda axloqiy tarbiya sifatida nomoyon qiladi.

Qadimdayoq axloqshunoslikning ruhshunoslik (psixologiya) bilan aloqasi alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Zotan, bu ikkala fan kishilar xatti-harakati, fe'l-atvori va mayli-istaklarini o'rganadi. Lekin bu o'rganish ikki xil nuqtai nazaridan olib boriladi: ruhshunoslik u yoki bu xatti-harakat, fe'l-atvor, sababiy asos (motiv)larning ruhiy tabiati va shakillanish shart-sharoitlarini ochib beradi, axloqshunoslik ruhshunoslik tadqiq etgan hodisalarning axloqiy ahamiyatini tushuntiradi.

Axloqshunoslikning ijtimoiyshunoslik (sotsiologiya) bilan aloqasi o'ziga xos. Bu ikkala fan inson faoliyatini boshqarishning ijtimoiy muruvvatlaridan bo'lmish axloqni o'rganadi. Lekin axloqshunoslikning miqyosi bu borada keng. Ma'lumki, sotsiologiya insonlarning ommoviy xatti-harakati va ularning qonuniyatlarini faqat muayyan ijtimoiy tuzum doirasidagina tadqiq etadi. Axloqshunoslik esa, o'z mohiyatiga ko'ra, lozim bo'lganda, muayyan ijtimoiy tuzum yoki davr doirasidan chiqib, inson axloqning yuksak yutug'i sifatida kelgusi davrlar uchun ham tarixiy va axloqiy ahamiyat kasb etgan shaxsiy, xatti harakatlarni hamda ularning sababiy asoslarini o'rganadi.

Axloqshunoslikning siyosatshunoslik bilan aloqasi, ayniqsa, o'ziga xos va murakkab. Chunki siyosiy kurash qarama-qarshi axloqiy qoidalar va talablar kurashini toqozo etadi. Shaxsiy intilishlar bilan davlat va jamiyat manfaatlarining mosligi, maqsadlar va vositalarning pok yoki nopokligi muammolari o'rta chiqadi. Lekin, aslida siyosat qay darajada axloqiylik kasb etsa, shunchalik u oqilona bo'ladi. Bu hozirgi kunda axloqshunoslik ham siyosatshunoslik ham jiddiy tadqiq etadigan eng muhim umumiy muammolardan biridir. Shuningdek, rahbarlik odobi, firqaviylik odob, etiket singari axloqshunoslikning muomila madaniyati doirasiga kiruvchi maxsus sohalari ham siyosatshunoslik bilan chambarchas bog'liq.

Bundan tashqari, keyingi paytlarda axloqshunoslikning ekologiya bilan aloqasi tobora mustahkamlanib bormoqda. Tarixan axloqshunoslik ko'proq insonning o'zi, o'zgarlar va jamiyat oldidagi majburiyatlarini tahlil etish bilan shug'illangan, uning tabiatga bo'lgan munosabati diqqat markazidan chetda qolib kelgan. Lekin, keyingi davrlarda, ayniqsa, XX asr tabiatga nisbatan tor manfaatparastlik doirasidagi yondoshuvlar oqibatida paydo bo'lgan ekologik bo'hron manzarani o'zgartirdi. Endilikda global ekologik muammolar ko'proq odamlarning ijtimoiy-axloqiy nuqtai-nazariga bog'liq ekani ma'lum bo'lib qoldi. Shunday qilib, hozirgi kunda ekologik muammolarni hal etish axloqshunoslikka borib taqalmoqda. XX asrda ekologik axloqshunoslik deganda maxsus soha ham yuzaga keldi. Lekin, bu-axloqshunoslik ekologiyani to'liq o'z ichiga oladi, degan so'z emas. chunki bunda axloqiy baholash va boshqarish ob'ekti sifatida tabiatning o'zi emas, balki odamning tabiatga bo'lgan munosabati maydonga chiqadi.

Nazorat savollar:

1. Axloqshunoslikni qaysi ijtimoiy fanlar bilan yaqindan aloqador ekanligini gapirib bering.
2. Axloqshunoslikni ijtimoiy fanlar orasida o'ziga xos sifatga ega ekanligini aytib bering.
3. Axloqshunoslikni mavjud fanlar bilan ilmiy va amaliy asosda ish olib borishligini tushuntirib bering.
4. Axloq fanini mustaqil fan ekanligini ta'riflab bering.

Mavzu bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari:

1. Prezidentimizning axloqiy fikrlari bayon etilgan asrlari ro'yxatini tuzib kelish.
2. Abdulla Avloniyning «Turkiy Guliston yoxud axloq» asaridan (T.: 1994) 3-18 betlarini konspekt qilish.

Mavzu bo'yicha asosiy xulosalar:

1. Axloqshunoslik eng qadimgi inson haqidagi fanlardan biridir.
2. Axloqshunoslik o'zining tarixiy taraqqiyot bosqichlariga ega.
3. Axloqshunoslik falsafiy fanlar tizimida o'z o'rniga ega.

Adabiyotlar:

1. **Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. T.: 1999. 8-30 bb.**

2. Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. T.: 1999. 3-32 bb.
3. Aliqulov H. Mutafakkirlar axloq va adolat haqida. T.: 1995. 10-44 bb.
4. Yusupov E., Ismoilov F. Inson odobi bilan. T.: 1985.
5. Qori Nizomiddin bin Mulla Xasan. Ilmi axloq. T.: 1994. 3-16 bb.
6. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. T.: 2003. 7-20 bb.
7. Guseinov A. A. Apresyan. R.G. Etika. Uchebnik. M.: Gardariki 1999.7-40 bb.

2-Mavzu: ISLOM AXLOQI

Fanni o'qitish texnologiyasi: "Islom axloqi" mavzusidagi ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

TG 'r	Bosqichlar va bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt
1	Tayyorlov bosqichi: 1.1 Dars maqsadi: Talabalarga islom axloq tushunchasi, uning mohiyati, asosiy maqsadi va vazifalari, jamiyatda tutgan o'rni haqida ma'lumot berish. 1.2. Identiv maqsadlar: 1.2.1. Islom axloqi tushunchasiga ta'rif bera oladi. 1.2.2. Islom axloqining inson hayotidagi o'rnini ochib beradi. 1.2.3. Islom axloqning turli talqinlarini izohlay oladi. 1.2.4. Prezident asarlarida islom axloq masalalarining yoritilishini tushuntiradi. 1.3. Asosiy tushuncha va iboralar: Islom axloqining jabhalari, islom axloqning talqinlari, islom axloq vazifalari, islom axloqining ahamiyati. 1.4. Dars shakli: guruh va mikroguruhlarda. 1.5. Foydalaniladigan metod va usullar: suhbat, ma'ruza-hikoya, baxs, videousul. 1.6. Kerakli jihoz va vositalar: Ko'rgazmali qurollar, xarita, tarqatma materiallar.	O'qituvchi
2	O'quv mashg'ulotni tashkil qilish bosqichi: 2.1. Mavzu e'lon qilinadi. 2.2. Ma'ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi.	O'qituvchi, 15 minut
3	Guruhda ishlash bosqichi: 3.1. Talabalarga muammoli savol beradi. 3.2. Talabalar fikri eshitiladi, boshqa talabalar baxsga chaqiriladi. 3.3. Umumiy xulosalar chiqariladi va to'g'riligi tekshiriladi. 3.4. Umumiy xulosaga kelinadi.	O'qituvchi- talaba, 40 minut
4	Mustahkamlash va baholash bosqichi: 4.1. Berilgan ma'lumotni talabalar tomonidan o'zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi: -Islom axloqi deganda nima tushiniladi? -islom axloqiga berilgan ta'riflarni ayting? -Islom axloqini barkamol avlod tarbiyasidagi o'rni nimalardan iborat? 4.2. Eng faol talabalar (baholash mezonida) baholanadi.	O'qituvchi, 15 minut
5	O'quv mashg'ulotini yakunlash bosqichi: 5.1. Talabalar bilimi tahlil qilinadi. 5.2. Mustaqil ish topshiriqlari beriladi. 5.3. O'qituvchi o'z faoliyatini tahlil qiladi va tegishli o'zgartirishlar kiritadi.	O'qituvchi, 10 minut

Asosiy savollar:

1. Islom axloqini asosiy xususiyatlari.
2. Islom axloqining manbalari va hoziri zamon.

Tayanch tushuncha va iboralar:

Islom, Qur'on, hadis, sura, oyat, shariat, choriyorlar, imon, eshson, islom axloqi, imonli kishi, mehr-muruvvat, mo'min-musilmon.

1-asosiy savol. **Islom axloqini asosiy xususiyatlari.**

Darsning maqsadi:

Talabalarga islom axloqi haqida keng va atroflicha tushuncha berish.

Identiv o'quv maqsadlar:

1. Islom dini haqida tushuncha beradi.
2. Islom axloqining asosiy hususiyatlarini ayta oladi.
3. Islom axloqi axamiyati haqida ma'lumot beradi.
4. Islom axloqini sharq xalqlariga xosligini tushuntiradi.

1 -asosiy savolni bayoni.

Islom ta'limoti bo'yicha inson Xudo tomonidan yaratilgan va uning bandasidir. Olloh uni tuproqdan yaratgan Odam Atoning qobirg'asidan esa Momo Xavoni yaratgan. Odam Ato shaytonning izmiga kirib axdga shak keltirgan.

Islomda bir qator amal va ibodatlar mavjud. U islom, imon va g'usondan iborat. Islom besh ustundan: imon, namoz, zakot, ro'za va haj amallaridjan iborat. Imonning esa 7 talabi bor.

Islom axloqi tizimida imon va din talablari xamda shariat kursatmalari xar bir musulmonning axloq normasiga aylantirilgan. Din aqidalariga uning marosimlariga qattiq turib, amal qilish musulmonning axloqiy majburiyati, burchi deb e'lon qilingan.

«Jamiyatimizning diniy-ruxiy asoslarini, xalqimizning ming yillik ma'naviy-axloqiy yuksalish tajribasini o'zida jamlagan Islom madaniyatini tiklash o'z taqdirini o'zi belgilash, tarixiy xotiraga madaniy tarixiy birlikka ega bo'lish yo'lidagi g'oyat muhim qadam bo'ldi», - degan edi I.Karimov.

«Dinga munosabatimiz o'zgardi. O'rtadagi tushunmovchilik, qarama-qarshilik yo'qoldi. Buning o'rniga xamkorlik, xamjihatlikka o'tdik. Oshkoralik, demokratiya yo'lidan birinchi, lekin dadil qadamlar qo'ydik» degan edi yurtboshimiz.

«Din bizning qon-qonimizga, ongu-shuurimizga shu qadar teran singib ketganki, uni hech qanday kuch, hech qanday tashviqot bilan chaqirib bo'lmaydi.»-deydi I.Karimov.

Islom dini insonparvarlikni targ'ib qiluvchi din. Ayniqsa bugingi kunda yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalashimizda Islom axloqi normalaridan keng foydalaniladi. Yoshlar islom dini mohiyatini bilishi kerak. Islom dini insoniylikka mos kelmaydigan barcha voqea-hodisalarni qoralaydi. Qur'onda yolg'unchilik, va'dabozlik, chaqimchilik, omonatga-xiyonat qilish, xiyonat, dilozorlik, o'g'irlik, dangasalik kabilar qoralanadi. Chunki vijdonli, imonli, diyonatli insonlar bu yomon xislatlarni yo'qotishga xarakat qiladi.

Qur'onda mol-mulkka berilish qoralanadi. Islomda inson ko'nglini, dilini og'ritish mumkin emasligi aytilgan. Qur'onning juda ko'pgina suralarida kambag'allarga, musofirlar va qashshoqlarga yordam berish, musibat va kulfatlarga chidamli bo'lish, to'g'ri so'z bo'lish, iflos va gunox ishlardan o'zini chetga olish, kechirimli bo'lish, o'g'irlik qilmaslik kabilar haqida fikr yuritiladi.

Islom dini ximmat, xayr-sahovat, mehmondo'stlik, jasorat, botirlik, sabr-toqat, poklik, xalollik, vafodorlik, sadoqatlik kabi fazilatlarini targ'ib qiladi.

Islom dinida jasurlik, mardonavorlik, sabr-toqat, sodiqlik, sadoqatlik, to'g'rilik, insonparvarlik, mextansevarlik, ilmlilik, saxovatlik, adolatparvarlik kabi fazilatlar haqida ham ko'p fikrlar bayon qilingan.

Xulosa qilib aytganda islom dinida komil inson amal qilishi lozim bo'lgan xislatlar ko'rsatib berilgan. Ota-ona, keksalarga xurmat, ilimli bo'lish, xamkorlik, do'stlik, insonparvarlik ayollarni qadirlash, saxovat, rostgo'ylik, iffat, diyonat, raxim-shafqat, e'tiqod, mexmondo'stlik, mehr-oqibat, xayru ehson, tozali, pokizalik, bilimdonlik, vazminlik, tadbirkorlik, xalollik, ishonch, ximmat, bardoshlik, xushxulqlik, shukr, vafo, kamtarlik, tavoze, hayo, tejamkorlik, sir saqlash kabi axloqli odatlar ko'rsatilgan. Islomiy urf-odat, qadriyatlar orqali yoshlardagi qusurlarini yo'qotish, yaxshi xislatlarni tarkib toptirish mumkin.

Nazorat savollar.

1. Islom nima?
2. Olloh payg'ambarlar haqida nima bilasiz?
3. Qur'oni Karim haqida gapiring?
4. Choriyorlar kimlar?
5. Hadislar haqida gapiring
6. Imon, islom, ehsonni farqlab bering?

2-asosiy savol. **Islom axloqining manbalari va hoziri zamon.**

Darsning maqsadi:

Talabalarni islom axloqining asosiy manbalari bilan tanishtirish.

Identiv o'quv maqsadlar:

1. **Islom axloqini asosiy manbalarini biladi.**
2. Qur'onni axloqiy o'gitlarini ochib bera oladi.
3. Xadislar axloqiy tarbiyaning manbai ekanini tushunadi.
4. Shariatda axloqiy masalalarni quyilishini izoxlab bera oladi.
5. Islom axloqini-dunyoviy axloq bilan taqqoslaydi.

2- asosiy savolning bayoni:

Islom axloqining asosiy manbalari bu Qur'on, xadis va shariatdir. Islom axloqi o'z bandalarni yaratgan egam oldida amalga oshirgan faoliyatlari uchun javobgarligini takidlaydi va bu jarayon islom ta'limotlarini asosini tashkil etuvchi: imon, islom va ehson amallarida amalga oshadi. «Din», «imon» tushunchalari arabcha so'z bo'lib, ularning har ikkisinining ham ma'nosi «ishonch», «e'tiqod» degan ma'noni bildiradi.

Qalbni Ollohga bog'lash, uning yagonaligini, Muxammad Ollohning elchisi ekanligiga til va dil bilan ishonch va e'tiqod kishilarni qalban poklaydi. Islomni-axloqiy ilm, poklik insonparvarlik haqidagi ta'limot ekaligi to'g'risida olam-olam kitoblar bitilgan. Birgina xudoyi taoloning manbalarida qayd etilgan ar-Raxmon-mexribon, ar-Raxim-raximli, al-Aliym-biluvchi, al-Adl-adolatli, al-Xofiz-saqlag'uvchi, al-Xakim-xikmat soxibi, al-Qodir-qudratli kabi sharaflil nomlarining aksariyati ijobiy axloqiy fazilatlarini anglatadi. Islom ta'limotida komil inson sifatleri imonli yoki taqvodor inson targ'ib etiladi. Uning sifatleri «Qur'oni Karim»ning, «Baqara» surasida quyidagicha qayd etiladi.

1. Ollohga imon.
2. Oxiratga imon.
3. Farishtalarga imon.
4. Kitoblarga imon
5. Payg'ambarlarga imon.
6. Saxovatpesha fazilat.
7. Nomozxon fazilat.
8. Zakotni beradigan fazilat.
9. Axdiga vofodor fazilat.
10. Sabr-toqatli fazilat.

Ya'ni yuqoridagi 10 maqomni amalga oshirgan kishi imonli kishi, taqvodor inson nomiga muyassar bo'ladi. Va bu fikr Qur'onning qator boshqa suralarida ham qayd etildi. Qur'on suralarida ham qator axloqiy fikrlar bildirilgan:

- Mo'minlarning afzali xulq-atvori yaxshilaridir.
 - Imon jihatidan mo'minlarning komilrog'i-xulqi yaxshi bo'lgani va xotinlarga yaxshi muomila qiladiganidir.
 - Men barcha yaxshi axloqni takomillashtirish uchun yuborilganman.
 - Xayo doim yaxshilik keltiradi.
 - Odamlarning yaxshisi-odamlarga foydalirog'idir.
 - Mo'min kishilarga berilgan narsalarning yaxshisi chiroyli xulqdir.
 - Din nasihatdan iborat.
 - Har bir qilinadigan yaxshilik sadoqat savobiga tengdir.
 - Hech bir ota o'z farzadiga xulq-odobdan buyukroq meros berolmaydi.
- Islom axloqni uchinchi bir manbai bu shariatdir.

Shariat-musulmon xuquqi islomning dastlabki davrida u tarqalgan mamlakatlarda ijtimoiy iqtisodiy va diniy faoliyatni qamrab oluvchi qonunlar majmuasini ishlab chiqish ehtiyoji natijasida vujudga keladi. Sharatning tugal shakllanishi XI-XII asrlarga to'g'ri keladi. Undagi asosiy qoidalar davlat xuquqi, mulk va jinoyat xuquqi, qozilik va kafillik masalalari, qasam ichish qoidalari, oilaviy masala, vaqf qoida-shartlari, ro'za tutish, nomoz o'qish, zakot, xaj va boshqa tartib va talablardan iborat.

Shariat dindagi xatti-xarakatlarni umumiy xolda ikkiga: xalol va xaromga ajratadi. Bu amallarni o'rganish, bilish va amal qilish to'g'risida Hadisu shariflarda: «Shariat ilmini bilishga xarakat qilish har bir erkak va ayol musulmonlar uchun farzdir», deb aytilgan.

Nazorat savollar.

1. Islom nima?
2. Olloh payg'ambarlari haqida nima bilasiz?
3. Qur'oni Karim haqida gapiring?
4. Choriyorlar kimlar?
5. Hadislar haqida gapiring
6. Imon, islom, ehsonni farqlab bering?

Mavzu bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari:

1. Axloq-odobga oid 10 ta hadis yodlash.
2. Nurboqiy H. «Qur'oni Karimning ilmiy mo'jizalari» T.:2000 kitobidan «Bismillohning 19 siri» bo'limini konspekt qilish.

Asosiy xulosalar:

1. Markaziy Osiyoda axloqiy ta'limotlar shakllanishida va rivojlanishida islom oxloqiy qoidalarining o'rni beqiyosdir.
2. Islom axloqi axloq tizimida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar.

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. T.: 1999. 8-30 bb.

2. Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'lmiz bilan qurmoqdamiz. T.: 1999. 3-32 bb.
3. Qur'oni Karim. T.: 1991. (2:177)
4. Aliqulov H. Mutafakkirlar axloq va adolat haqida. T.: 1995. 10-44 bb.
5. Qori Nizomiddin bin Mulla Xasan. Ilmi axloq. T.: 1994. 3-16 bb.
6. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad (Adab durdonalari). T.: 1990.
7. Sher A. Axloqshunoslik. T.: 2003. 50-58 bb.

3-mavzu: MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARINING AXLOQIY QARASHLARI

Fanni o'qitish texnologiyasi: "Markaziy Osiyo mutafakkirlarining axloqiy qarashlari" mavzusidagi ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

TG 'r	Bosqichlar va bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt
1	Tayyorlov bosqichi: 1.1 Dars maqsadi: Talabalarga Markaziy Osiyo mutafakkirlarining axloqiy qarashlarining mohiyati, asosiy maqsadi va vazifalari, jamiyatda tutgan o'rni haqida ma'lumot berish. 1.2. Identiv maqsadlar: 1.2.1. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining axloqiy qarashlariga tavsif bera oladi. 1.2.2. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining axloqiy qarashlarining jamiyan hayotidagi o'rnini ochib beradi. 1.2.3. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining axloqiy qarashlarini izohlay oladi. 1.2.4. Prezident asarlarida Markaziy Osiyo mutafakkirlarining axloqiy qarashlari masalalarining yoritilishini tushuntiradi. 1.3. Asosiy tushuncha va iboralar: Markaziy Osiyo mutafakkirlarining axloqining jabhalari, vazifalari va ahamiyati. 1.4. Dars shakli: guruh va mikroguruhlarda. 1.5. Foydalaniladigan metod va usullar: suhbat, ma'ruza-hikoya, baxs, videousul. 1.6. Kerakli jihoz va vositalar: Ko'rgazmali qurollar, xarita, tarqatma materiallar.	O'qituvchi
2	O'quv mashg'ulotni tashkil qilish bosqichi: 2.1. Mavzu e'lon qilinadi. 2.2. Ma'ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi.	O'qituvchi, 15 minut
3	Guruhda ishlash bosqichi: 3.1. Talabalarga muammoli savol beradi. 3.2. Talabalar fikri eshitiladi, boshqa talabalar baxsga chaqiriladi. 3.3. Umumiy xulosalar chiqariladi va to'g'riligi tekshiriladi. 3.4. Umumiy xulosaga kelinadi.	O'qituvchi- talaba, 40 minut
4	Mustahkamlash va baholash bosqichi: 4.1. Berilgan ma'lumotni talabalar tomonidan o'zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi: -Markaziy Osiyo mutafakkirlarining axloq deganda nima tushiniladi? -Markaziy Osiyo mutafakkirlarining axloqiga berilgan tavsiflarni ayting? -Markaziy Osiyo mutafakkirlarining axloqini barkamol avlod tarbiyasidagi o'rni nimalardan iborat? 4.2. Eng faol talabalar (baholash mezonida) baholanadi.	O'qituvchi, 15 minut
5	O'quv mashg'ulotini yakunlash bosqichi: 5.1. Talabalar bilimi tahlil qilinadi. 5.2. Mustaqil ish topshiriqlari beriladi.	O'qituvchi, 10 minut

	5.3. O'qituvchi o'z faoliyatini tahlil qiladi va tegishli o'zgartirishlar kiritadi.	
--	--	--

Asosiy savollar:

1. Markaziy Osiyo mutafakkirlari Farobiy, Beruniy, Ibn Sinoning axloqiy qarashlari.
2. Mir Alisher Navoiy va Voiz Koshifiyning axloqiy qarashlari.

Tayanch tushuncha va iboralar:

Uyg'onish davri, tasavvuf, hayot va momot, ixtiyor erkinligi, muhabbat, niyat, qadr-qimmat, lazzat, fazilat, maqsad, aql, pandnoma.

1-asosiy savol. Markaziy Osiyo mutafakkirlari Farobiy, Beruniy, Ibn Sinoning axloqiy qarashlari.

Darsning maqsadi:

Talabalarda uyg'onish davrining o'ziga xos xususiyatlari va Markaziy Osiyo mutafakkirlari Farobiy, Beruniy, Ibn Sino axloqiy qarashlari haqida tushuncha berish.

Identiv o'quv maqsadlar:

1. O'rta asrlar musulmon sharqi axloqshunosligi va tasavvuf axloqini ifodalab beradi.
2. Farobiy axloqiy ta'limotini tushuntiradi.
3. Beruniyning axloqiy qarashlarini tushuntiradi.
4. Ibn Sino axloqiy ta'limotini gapirib beradi.

1- asosiy savolni bayoni:

Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari madaniyati rivojida IX asrdan boshlab keskin yuksalishni kuzatamiz. Bu rivojlanish bir necha asr davom etadi. Bu davrda faylasuf, tabiatshunos, shoir, olimlarning ajoyib vakillari etishib chiqadi. O'sha davrning milliy tiliga aylangan arab tiliga turli chet tillardagi asarlarni tarjima qilish avj oladi. Matematika, astaranomiya, ximiya, meditsina, mineralogiya, etika, falsafa, fizika sohalarida yangi kashfiyotlar qo'lga kiritiladi. Badiiy adabiyot misli ko'rilmagan darajada yuksalishiga erishildi. Hozirgi davrga qadar o'zining qiymatini yo'qotmagan matnni boyligi, qomusiy harakteri bilan kishini taajubga solib keluvchi ilmiy risolalar, o'z donoligi bilan kishini chuqur o'yga soluvchi, axloqiy kuchni o'zida yashirgan fors, arab, turk tillaridagi ruboiylar, g'azallar, hikoyalarning ko'pchiligi shu davrning mahsulidir.

Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino kabi o'rta asr madaniyatining qomusiy bilim egalari etishib chiqdilar. Bulardan tashqari Rudakiy, Sa'diy Sheroziy, Nizomiy Ganjaviy, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy, Voiz Koshifiy, Bobur kabi so'z san'atkorlari etishib chiqqanlar. Bu davrda boy mazmuni bilan avlodlar uchun zavq-shavq, pandnoma vazifasini bajarib kelgan qator asarlar yozildi: «Qobusnoma», «Bo'ston», «Guliston», «Bahoriston», «Mahbub ul-qulub» kabi buyuk axloqiy asarlar yaratildi.

O'rta va Yaqin Sharq uyg'onish davri o'tmish an'alariga, Sharq halqlarining o'tmish og'zaki ijodiga tayanadi, ulardan keng foydalaniladi. Bu davrda fanda Aristotel, Ptolomey, Galen asarlari arab tiliga tarjima qilindi, o'rganildi, ularga sharhlar, taqlidlar yozildi.

Yaqin va O'rta Sharqda Uyg'onish davrining iqtisodiy, siyosiy negizlari o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida xususan Eron, Xuroson, Markaziy Osiyo kabi turli mamlakatlarda IV-V asrlardan boshlab uzoq davom etgan quldorlik tuzumi emirilib, feodal munosabatlar rivoj topa boshlagan edi. VI-VII asrlarda bu mamlakatlar xududlarida quldorlik davlatlari o'rnida quldorlik saqlangan xolda, mayda feodal davlatlar tashkil topadi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotda ma'lum tushkunlik yuzaga keladi. Bu tushkunlik arablar istelosiga yo'l ochib berdi. Qisqa davrda Yaqin va O'rta Sharqning qator mamlakatlari bosib olinib, Tibetdan Ispaniyagacha bo'lgan hududda arab halifalik davlati vujudga keladi.

Bu tarixiy moddiy va madaniy qorishuv feodal ishlab chiqarish munosabatlarining rivojiga olib keladi. Shu sababdan bu davrda Uyg'onish davrining boshlanishi xalifalikning markaziy shaharlarida vujudga kelganini ko'ramiz. Xalifalikning turli chekka o'lkalaridan kelgan turli

millat vakillari bo'lgan Xorazmiy, Farg'oniy, Marvaziy kabi olimlar xalifalikning markaziy shaharlari Damashq va Bog'dodda ijod etdilar.

Sharq Uyg'onish davri madaniyati insoniyat tarixida mustaqil alohida davrini tashkil etib, mazmuni, yo'nalishi, vujudga kelishi maqsadlari jihatidan o'z davrining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy ehtiyojlari bilan uzviy bog'liq va shulardan kelib chiqib, feodal tuzum sharoitida vujudga kelgan yangi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy taraqqiyotga bo'lgan talablarni o'zida ifodalaydi.

O'rta va Yaqin Sharqda esa turlicha ko'p xudolik dinlari, otashparastlik, zardushtlik o'rniga VII-VIII asrlarda islom dini o'rnatiladi. Islom dini zardushtlik bilan keskin raqobatda, kurashda g'alaba qiladi. Islomning to'la xukumronligi 1-2 asr davom etib, so'ngra bu erda Uyg'onish davri madaniyati boshlanadi.

Uyg'onish davrining asosiy muammosi inson muammosidir. Insonni diniy aqidalar sirtmog'idan, diniy tasavvurlarga ko'r-ko'rona ishonishdan ozod qilish, erkin fikr yuritishning keng yo'lga olib chiqishni Uyg'onish davri qo'ydi.

Uyg'onish davri gumanizmi badiiy adabiyotda, san'atda, avvalo insoniy xislatlarni tasvirlashdan, kuylashdan, ularni go'zal bo'yoqlarda nomoyon qilishdan, insonning his-tuyg'ulari, psixologiyasi hokazolarini aks ettirishdan, qisqasi, insonni-ulug'lanish, uni tabiatning eng buyuk maxsuli, oliy yutug'i, yakuni deb ta'riflashdan iborat bo'ldi.

Insonparvarlik g'oyasi Uyg'onish davri ma'naviy hayoti, ma'naviy madaniyatning eng umumiy va xarakterli xususiyati bo'lib, u ijtimoiy-axloqning yo'nalish shaklida vujudga keldi, rivojlanadi va nomoyon bo'ldi. Insonparvarlik g'oyalarini, tamoyillarini amalga oshirishning asosiy yo'li vositasi sifatida etuk axloq, ma'rifatli va adolatli jamiyat, jamoa masalasi oldinga surildi.

Farobiy 160 dan ortiq asar yozgan. Farobiyning «Arastu etikasiga sharx», «Fozil odamlar shaxri», «Baxs –sodatga erishuv xaqida risola» «So'zlar va lafzlar haqida kitob», «Aql to'g'risida risola» va boshqa asarlarida o'zining axloqiy g'oyalarini bayon etgan.

Farobiy 12 fazilatga ega bo'lgan insonlari axloqli deb hisoblaydi. Fazilatlarni o'zini 3 turkumga ajratadi.

Farobiy axloqli inson deb, ilm-ma'rifatga intiluvchi, haqiqat, adolatni sevuvchi, yolg'onchining dushmani bo'lgan, jasur, mard kishilarni tushunadi. Axloqiy fazilatlar esa aqillilik va donolikdan iborat, deydi.

Farobiy o'zining «Fozil odamlar shaxri» asarida 12 tug'ma xislatni birlashtirgan kishigina axloqiy odam, ya'ni fozil inson bo'la oladi, deydi. Bu hislatlar quyidagilardan iborat:

1. Odamning barcha organlari (mijjasi) mukammal taraqqiy etgan bo'lishi zarur - sog'lom.
2. Barcha masala, muhokama va mulohazani tezdan va to'g'ri tushuncha oladigan - farosatli,
3. Xotirasi juda baquvvat bo'lmog'i lozim - kuchli xotiralilik.
4. Zexni tez va o'tkir bo'lmog'i - zukko.
5. So'zlari aniq bo'lsin - notiqlik.
6. Bilish va o'qishga muhabbati bo'lsin - ma'rifatli.
7. Ochko'z bo'lmasin - qanoatli.
8. Haqiqat va haqiqat tarafdorlarini sevadigan bo'lsin - haqiqatgo'y.
9. Ruhi g'ururli va vijdonli bo'lsin - olijanob.
10. Boylikka jirkanch bilan qarasin - molparast bo'lmaslik.
11. Adolatni sevuvchi va uning uchun kurashuvchi bo'lsin - adolatparvar.
12. Qat'iy so'z, qo'rqmass, jasur bo'lsin - mard.

Etika - inson xatti-harakatining asosiy normalari (talablari) va qoidalarini o'rganadi.

Farobiy ham Epikur kabi etikani asosiy vazifasi har bir kishining pirovar maqsadi baxt – saodatga erishishdir-deb biladi.

Uningcha-bu mutloq ezgulikdir. Falsafa bilimlarning onasidir.

Al-Beruniy 150 atrofida asar yozgan. Qadimgi halqlardan qolgan yodgorliklar, «Hindiston», «Geodeziya», «Ma'sud qonuni» kabi asarlari mashhur. Beruniy inson hulqini 2 ga: yaxshi va yomon hulqlarga bo'ladi.

Insonning iroda erkinligi tan olish Beruniyning materialistik fikridir. U insonning axloqiy kamolotga erishuvini ta'kidlab, bunday intilishini talab qiladi ham: «Insonga ro'baro' bo'linganda, avval ko'zga uchraydigan narsa basharasi va suratining ko'rinishidir. Inson o'z suratini o'zgartirishdan o'jiz bo'lsa ham, tilsiz hayvondan orqada qolishni istamasa nafsni tozalashdan o'jiz bo'lmaydi». Yana Beruniy inson o'z shakliga ham e'tibor bilan qarashi kerakligi, inson go'zal bo'lmog'i kerakligi uqtirib, «Surat va qiyofaning chiroyi mahbub hollardir, bu holatdagi kishiga har kim Rag'bat qiladi». Deydi va pokiza kiyimlar kishidagi zohiriy ravshan muruvvatga ishora qilishni ta'kidlaydi. Beruniyning axloqiy qarashlari idealistik asosda bo'lsa-da, ular islom mafkurasining homiysi, ilm-fanning johil dushmani Mahmud G'aznaviy hukmronligi davrida g'oyat ilg'or fikrlar edi.

Abu Ali Ibn Sino axloqqa katta hissa qo'shgan. Uning «Tib qonunlari», «Risolutur tayr», «Salomon va Ibsol» kabi asarlari mavjud.

Ibn Sino kamtarlik, izzat-hurmat, jasurlik, to'g'irlik, sofdillikni insoniy fazilatga kiritgan. Bunday fikrlarni Jomiy, Navoiy, Davoniylarda ham ko'rishimiz mumkin. Bu mutafakkirlar diniy axloqigina emas, balki unga qarama-qarshi, dunyoviy, ilg'or axloq haqidagi o'z qarashlarini ham bayon etgan.

Har kim ilm ichida uning o'rganadigan bir narsasi bo'ladi, deb yozadi Ibn Sino «Donishmandnoma» asarida. Bu narsalar iki tur bo'ladi: birinchisi, borligi bizning harakatimizga bog'liq bo'lmagan narsalar. Avvalgisiga bizning qilmishlarimiz misol bo'lsa, ikkinchisiga, er, osmon, hayvon va o'simliklar misol bo'ladi. Uning birinchisi o'zimizni o'z qilmishlarimizdan xabardon qiladi va «Amaliy ilm» deb ataladi. U bizlarning bu dunyodagi ishlarimizni amalga oshirishimiz uchun nima qilishimiz kerakligini o'rgatadi». Ibn Sino fikricha, Amaliy ilm uchga bo'linadi: 1) jamiyatni, halqni, mamlakatni idora qilish ilmi, 2) uyni boshqarish, oila munosabatlarini tartibga solish ilmi va 3) «Odamning o'zi to'g'risida, kishilar o'z-o'ziga qanday munosabatda bo'lishi kerakligi haqidagi ilm yoki o'z-o'zini idora qilish ilmi»dir. Axloq ana shu «o'z-o'zini idora qilish» ilmi jumlasiga mansubdir.

Xulosa qilib aytganda Markaziy Osiyoda yashab o'tgan barcha mutafakkirlar qobusiy bilim egasi bo'lishi bilan birga buyuk axloqshunos olimlar ham bo'lishganlar.

Nazorat savollar:

1. Markaziy Osiyodagi o'sha davrdagi ijtimoiy muhit haqida gapiring.
2. Mutafakkirlarning axloqiy qarashlari o'rtasidagi uzviylik haqida ayting.
3. Farobiyning axloqiy qarashlarini bayon eting.
4. Beruniy va Ibn Sino axloqiy ta'limolarini tushuntirib bering.
5. Pandnomalar haqida so'zlab bering.

2-asosiy savol. **Alisher Navoiy va Voiz Koshifiyning axloqiy qarashlari.**

Darsning maqsadi:

Navoiy va Koshifiy axloqiy ta'limotlari haqida talabalarga keng tushuncha berish.

Identiv o'quv maqsadlar:

1. Navoiy dunyoqarashidagi axloqiy tamoyillarni o'rganadi.
2. Navoiy asarlarida inson qadr-qimmatini yuqori qo'yilganligini gapirib beradi.
3. «Mahbub ul-qulub» Navoiyning shoh axloqiy asari ekanligini ta'riflaydi.
4. Koshifiy buyuk axloqshunos sifatida biladi.
5. «Axloqi Muxsini» asari haqida gapiradi.
6. Mukammal inson fazilatlarini sanab beradi.

2-asosiy savolning bayoni:

Navoiyning axloqiy qarashlari uning maxsus axloqqa oid asarlarida she'rlari va dostonlarida bayon etilgan. Hazrat Navoiyning 4500 asarlarining aksariyati inson va uning axloqi mavzusidir.

Buyuk mutafakkir Navoiyning «Maxbub ul-kulub» (Ko'ngillarni sevgan) asari uning asosiy axloqqa bag'ishlangan asarlaridandir. Bu bilan u ayniqsa, Temuriylar davri

axloqshunosligi taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi. Asar 40 bob 3 qismdan iborat bo'lib pandnoma tipida yozilgan.

«Mahbub ul-kulub» asarida komil inson masalasi o'ziga xos tarzda o'rta tashlanadi. Navoiy, naqshbandiya sulukining axloqiy talablaridan kelib chiqib, o'z zamonasi bilan hamnafas bo'la oladigan va doimo komillikka intilib yashaydigan insonni axloqiy namuna deb biladi.

Navoiy «Kamol et kasbkim» qit'asida odamlarni ikki guruhga: «aqli ma'ni» va «aqli sur'at»ga bo'ladi. Navoiy dunyodan kamolotga etmay o'tish hammomdan toza bo'lmay chiqishning huddi o'zidir, deb yozgan edi.

Professor N.Komilov «Farxod va Shirin» dostonini o'qib, Suqrot komil inson degan xulosaga keladi. Publitsis Ergash Ochil Navoiy Farxodni komil inson timsolida ifodalaganligini ta'kidlab o'tadi. Bu erda Farxodni har bir harfi: F-firoq, r-rashk, x-xajr, o-oh, d-dardni mujassam etgan.

Alisher Navoiy axloqiy fazilatlar ichida hayolilikni birinchi o'ringa qo'yib:

Uch qism ila imonga bino fahm ayla,
Avvalgisini aning hayo fahm ayla.
Ikkinchisini dag'i vafo fahm ayla,
Uchinchisini bilmasang, saho fahm ayla, - deydi u.

Mutafakkir inson imoni poydevorining birinchisi- hayo, ikkinchisi-vafo, uchinchisi-saxovatlilik, deydi. U hayoning ma'nosini keng tushunadi. Navoiy asarlarida hayoni targ'ib qilargan, mansabu amal emas, balki hayo va odob elni yuksaklikka ko'tarishini aytadi:

Navoiy umumiy asarlarini kuzatganda odamlardagi uch fazilat ulug'langanlini ko'rish mumkin:

1. Yaxshilik qilmoq va go'zal hulq.
2. Rostgo'ylik.
3. Hayo.

Husayin Voiz Koshifiy axloqiy g'oyalarni markazida «komil inson» va uning sifatleri turadi. Koshifiyshunos R.Mahmudovning fikricha Koshifiy

1. «Komil inson» kontseptsiyasini yanada rivojlantiradi.
2. Jamiyatni adolat asosida boshqarish kerak degan g'oyani ilgari suradi.
3. Axloqni aosiy vositasi deb ilm-ma'rifat va axloqiy tarbiyani biladi.
4. U odob, adabning ma'nosini keng tushunadi.
5. U buyuk insonparvar etadi.
6. U insonlar tengligini targ'ib etdi.
7. Kishilarni inoqlika chorladi.
8. U halqlar do'stligi keng targ'ib etadi.
9. Kishilarni kasb-hunarga, ma'rifatga chorladi.
10. Ilmli kishilarni ulug'ligini qayt etdi.

Koshifiy o'z axloqiy ta'limotida mukammal inson sifatlarini ishlab chiqqan va ular 10 ta deb ko'rsatadi:

1. Hayri ishlarda odamlar bilan ziddiyatga bormaslik (elga teskari ish qilmaslik).
2. His tuyg'u va ehtirolarga berilmaslik (nafsni tiyish).
3. O'zgalar aybini ochsmaalik.
4. Birovlarni baxtsizligiga hammad bo'la olish.
5. Agar aybdor o'z aybiga iqror bo'lsa, uni avf etish.
6. Muxtojlariga yordam ko'rsatish (saxiylik).
7. Kishilar to'g'risida g'amho'rlik qilish (o'zgalara uchun mashaqqat tortish).
8. O'z nuqsonlarini ko'ra bilish.
9. Hulq-odobli bo'lish.
10. Hushmuomalali bo'lish kabi.

Bundan tashqari Koshifiyning yuzni o'qish san'ati to'g'risidagi ta'limoti ham axloqshunoslik fani uchun ahamiyatlidir.

Koshifiy 30 dan ortiq axloqiy qoidalar va fazilatlar to'g'risida o'z fikrini bildirgan. Masalan:

- «Sabrning ma'nosi haq taolodin kelgan baloga toqat qilmoq va ango o'zni to'xtatmoq bo'lur»;

- «Hayoning ma'nisi yomon ish qilmoqdin uyalmqlik bo'lur»;

- «Shijoat fazilat anolaridindur», deb yozadi.

Rostgo'ylik. Koshifiy rostgo'ylikni axloqiy fazilat deb tushunadi. Rostgo'ylik barcha insonlarda bo'lishi zarur, u kishini baxtga etaklovchi vosita deb biladi.

Rostgo'ylar bo'lg'usi tongla uqubatdin xalos.

Jahd qilg'il umrung ichra to ulardin bo'lg'onsen.

Rostgo'ylik insonning axloqiy xatti-xarakatini namoyon qiladi. Rostgo'ylik, ko'ngil ochiqlikni, dangalchilikni ko'rsatadi. Rostgo'ylikni Koshifiy bor haqiqatni ayta olish, o'z qadr-qimmatini to'g'ri tushunish, nuqsonlarni to'g'ri ko'rsata olish, ehtiyoj tufayli yuzaga kelgan axloqiy fazilat deb biladi. Shuning uchun ham rostgo'y odam tong kabi beg'uborligini ta'kidlaydi.

Rostliq sori aylasang ko'shish,
Bo'lg'ung osuda o'nnglanib sango ish.
Har kishidur jahonda kajraftor,
Qul bo'lur rostliqiga oxiri kor.
Bo'lg'och o'q rostliqi bila qoyim,
Ango ta'zim yo qilur doim.

Rostgo'ylik bor joyda hech qachon yolg'onchilikka o'rin qolmaydi. Lekin shariat taqozosi bilan yolg'on ham gapirish mumkin, qachonki, bu yolg'on yaxshilik uchun, ko'pchilik manfaati uchun xizmat qilsa.

Mutafakkir barcha kishilarni rostgo'y bo'lishiga chaqirib, bu insondagi eng muhim xislat, axloqiy qoida ekanligini uqtiradi.

Shijoat. Voiz Koshifiy «Axloqi Muxsiniy»ning o'ttizinchi bobini shijoatga bag'ishlaydi. «Shijoat fazilat onalaridandir, ya'ni uluq yaxshi sifatlaridan erur va shjoa' tavsifida kelibdurkim «innalloh muhibbish shujoa', ya'ni haq subxonaxu taalo do'st tutor shijoatlik kishilarni demak bo'lur». Shijoat-botirlik, jasorat, yuraklilik ma'nolarini anglatadi. Shijoatli odamni hamma o'ziga do'st sanaydi. Bu fazilat eng qiyin (ano), mashaqqatli fazilatlardan biridir:

Kerak bizga shujoat birla shuhrat,
Ki aningdin kishi tobg'oy sharofat
El uldurkim o'zini mashhur etgay.
Ki shuhrat topilib jon ketsa ketgay.

Mutafakkir shijoatga dovyuraklik, kamtarlik, donolik, chidamlilik kabi xususiyatlarni ham kiritadi. Shijoat ham insonparvarlik asosida bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi.

Nazorat savollar:

1. Navoiyning axloqiy ta'limotida «Mahbub ul-qulub» qanday o'rin egallaydi?
2. Navoiyni tasavvuf axloqiga doir asarlarini sanab bering.
3. Koshifiyning axloqiy qarashlarini o'ziga xosligini gapiring.
4. Koshifiyning Axloqi Muxsiniy asari haqida so'zlab bering.

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

- Farobiyning «Fozil odamlar shahri» T.: 1993 asaridan fozil insonning 12 fazilatni aniqlab, daftarga yozib kelish.
- Navoiyning «Mahbub-ul-qulub» T.:1983 asaridan asosiy axloqiy kategoriyalar ta'rifini o'rganish.

Asosiy xulosalar:

- Markaziy Osiyo mutafakkirlarining axloqiy qarashlarida komil inson axloqi mezonlari ishlab chiqilgan.
- Markaziy Osiyo mutafakkirlarining axloqiy qarashlaridagi asosiy mavzu-insonni ulug'lash-gumanizmdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: 1994.
2. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomayi Sultoni. T.: 1994.
3. Hayrullaev M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkiri. T.: 1994.
4. Jumaboev Y. O'zbekistonda falsafa va axloqiy fikrlar taraqqiyoti tarixidan. T.: 1997.
5. Maxmudov R. Degonimni ulusg'a marg'ub et. T.: 1992.

4-Mavzu: AXLOQNING ASOSIY KATEGORIYALARI VA TAMOYILLARI Fanni o'qitish texnologiyasi: "Axloqning asosiy kategoriyalari va tamoyillari" mavzusidagi ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

TG 'r	Bosqichlar va bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt
1	Tayyorlov bosqichi: 1.1 Dars maqsadi: Talabalarga axloqning asosiy kategoriyalari va tamoyillarini mohiyati, asosiy maqsadi va vazifalari, jamiyatda tutgan o'rni haqida ma'lumot berish. 1.2. Identiv maqsadlar: 1.2.1. Axloqning asosiy kategoriyalariga tavsif bera oladi. 1.2.2. Axloqning asosiy kategoriyalarining jamiyat hayotidagi o'rni ochib beradi. 1.2.3. Axloqning asosiy kategoriyalarini izohlay oladi. 1.2.4. Prezident asarlarida axloqning asosiy kategoriyalarining yoritilishini tushuntiradi. 1.3. Asosiy tushuncha va iboralar: Aloqning asosiy kategoriyalarining ahamiyati. 1.4. Dars shakli: guruh va mikroguruhlarda. 1.5. Foydalaniladigan metod va usullar: suhbat, ma'ruza-hikoya, baxs, videousul. 1.6. Kerakli jihoz va vositalar: Ko'rgazmali qurollar, xarita, tarqatma materiallar.	O'qituvchi
2	O'quv mashg'ulotni tashkil qilish bosqichi: 2.1. Mavzu e'lon qilinadi. 2.2. Ma'ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi.	O'qituvchi, 15 minut
3	Guruhda ishlash bosqichi: 3.1. Talabalarga muammoli savol beradi. 3.2. Talabalar fikri eshitiladi, boshqa talabalar baxsga chaqiriladi. 3.3. Umumiy xulosalar chiqariladi va to'g'riligi tekshiriladi. 3.4. Umumiy xulosaga kelinadi.	O'qituvchi- talaba, 40 minut
4	Mustahkamlash va baholash bosqichi: 4.1. Berilgan ma'lumotni talabalar tomonidan o'zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi: -Axloqning asosiy kategoriyalari deganda nima tushiniladi? -Axloqning asosiy kategoriyalariga berilgan tavsiflarni ayting? -Axloqning asosiy tamoyillarining barkamol avlod tarbiyasidagi o'rni nimalardan iborat? 4.2. Eng faol talabalar (baholash mezonida) baholanadi.	O'qituvchi, 15 minut
5	O'quv mashg'ulotini yakunlash bosqichi: 5.1. Talabalar bilimi tahlil qilinadi. 5.2. Mustaqil ish topshiriqlari beriladi. 5.3. O'qituvchi o'z faoliyatini tahlil qiladi va tegishli o'zgartirishlar kiritadi.	O'qituvchi, 10 minut

Asosiy savollar:

1. Axloqning asosiy kategoriyalar tizimi.
2. Axloqning asosiy tamoyillari va qoidalari.

Tayanch tushuncha va iboralar:

Kategoriya, yaxshilik, yomonlik, adolat, burch, or-nomus (sha'n), vijdon, hayotning ma'nosi, baxt, vatanparvarlik, baynalmilallik, jamoaviylik, mehnatga ongli munosabat, insonparvarlik, axloqiy tamoyillar, axloqiy qoidalar.

1-asosiy savol. Axloqning asosiy kategoriyalar tizimi**Darsning maqsadi:**

Talabalarga asosiy axloqiy kategoriyalar to'g'risida tushuncha berish.

Identiv o'quv maqsadlar:

1. Kategoriya tushunchasini biladi.
2. Axloqiy kategoriyalar tizimini tushuntiradi.
3. Axloqni asosiy tamoyillarini aytadi.
4. Axloqiy normalarni izohlaydi.
5. Axloqiy kategoriyalarni boshqa ijtimoiy fanlar kategoriyalari bilan taqqoslaydi.

1- asosiy savolning bayoni:

Har bir fan o'z kategoriyalar tizimiga ega. Kategoriyalarning mazmuni inson ongining o'rganilayotgan predmet mohiyatiga qay darajada kirib borganligini ko'rsatadi. Kategoriya lotincha so'zdan olingan bo'lib «xukm», «ta'rif» ma'nosini bildiradi. Axloqiy kategoriyalar axloqning eng muxim tomonlari va elementlari umumlashgan xolda o'z ifodasini topadi. Axloq kategoriyalarida axloqiy munosabatlarning ob'ektiv qonuniyatlarini, jamiyat axloqiy xayotining xamma tomonlari va rang-barangligini aks ettiradi. Ularda kishilar xatti-xarakatlari, qiliq va xulq-atvorlari ma'qullanishi yoki qoralanishi o'z aksini topgan. Har bir kategorianing o'ziga xos xususiyatlari bor va u shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi axloqning ma'lum tomonlarini aks ettiradi.

Axloqning asosiy kategoriyalar tizimi:

Yaxshilik va yomonlik.

Yaxshilik va yomonlik axloqiy ongning birmuncha umumiy va markaziy tushunchasi bo'lib, axloqlilik bilan axloqsizlikning farqi va karama-qarshiligini yaxlit bir shakilda ifoda etadi. Kishilar bu kategoriyalar yordamida tevarak atrofda sodir bo'layotgan hamma xodisalarni baholaydi. Agar yaxshilik kategoriyasida ijobiy voqea hodisalar, narsalar, ya'ni axloqiy idealga mos keladigan narsalar haqidagi tasavvur jamlansa, yomonlik tushunchasida kishilarning idealiga, ular e'zozlaydigan narsalarga zid keladigan, baxtga erishishga, odamlar orasidagi munosabatlarda insoniylikning o'sishiga to'sqinlik qiladigan barcha narsalar haqidagi tasavvurlar ifodalanadi. Yaxshilik va yomonlik axloqshunoslikning baxo kategoriyasi xisoblanadi. Yaxshilik va yomonlik odamlarning yurish turishida, ijtimoiy xayotida yaxshi odobni va yomon odobni birlashtiruvchi eng umumiy ifodadir.

Adolat.

Adolat – tenglikning xaqqoniy va taqdirlashning zaruriy o'lchovidir. Adolat-shaxs va ijtimoiy birlikning real iqtisodiy, xuquqiy, siyosiy xolatini qayd qiladi. Adolat boshqa kategoriyalaridan farqli suratda kishining jamiyatdagi axloqiy o'zaro munosabatlarining boshqaruvchisi sifatidagi o'ziga xos xususiyati quyidagilarda ko'rinadi: u taqdirilash va talab qilishning miqdoriy o'lchovidir. Adolat boshqa kategoriyalardan farq qilib, ijtimoiy ongning ikki shakli xuquq va axloqni bog'lovchi muxim tushunchadir.

Adolat-iqtisodiy, siyosiy, xuquqiy xodisalarni baholashda namoyon bo'luvchi ob'ektivlik, xolislik, xaqqoniyat, insonparvarlik singari alomatlarini ham o'zida ifodalaydi.

Burch.

Burch-shaxsning jamiyatga yoki kishilarga nisbatan bo'lgan axloqiy majburiyatlarini ifodalaydi. Burch-mavjud jamiyat talablarini bajarishning ikki ma'naviy zaruriyati, ijtimoiy baxt-saodat ehtiyojlari taqazo qiladigan muayyan xulq-odob zaruriyatidir. Burch-hamisha xatti-xarakterlarining asosiy sabablaridan biri sifatida nomoyon bo'ladi. Burch atamasi axloqqa Demokrat olib kirgan. Burchning turlari ko'p: fuqarolik, yigitlik, qizlik, talabalik, farzandlik, ota-onalik va boshqa.

Or-nomus. (sha'n) va qadr-qimmat.

Or-nomus kategoriyasi insonning jamiyatdagi o'z qimmatini anglashni hamda bu qimmatning jamiyat tomonidan tan olinishini ifodalaydi. Or-nomus axloqiy tushuncha sifatida insonda shaxsning ijtimoiy ahamiyati va axloqiy qimmatini xosil bo'ladigan fazilatlarining mavjudligini ko'rsatadi. Or-nomus shaxsiy qadr-qimmatni anglashni o'z ichiga oladi. Inson or-nomusi, sha'ni, qadr-qimmatini juda katta qiyinchilik, uzoq vaqt davomida paydo bo'ladi. Lekin axloqsizlik orqali or-nomus qisqa vaqtda yo'qolishi mumkin.

Vijdon.

Vijdon- odamning o'z xatti-harakatiga baho berishdir yoki boshqacha kishilar oldidagi ma'naviy javobgarligidir. Vijdon-insonning o'z xulqini muayyan axloq normalari nuqtai-nazaridan turib axloqiy baholashi va nazorat qilishi, o'z xatti-xarakterlarini va bu xatti-xarakterlarga bog'liq bo'lgan his tuyg'ularini, kechinmalarini o'zi tahlil qilishdir. Vijdon kategoriyasi baho, buyruq, motiv va emotsion xarakterga ega. Inson qachonki to'g'ri xatti-xarakter qilganligini, o'zi o'zlashtirgan axloq talablariga mos ravishda ish tutganligini anglasa o'z xulqi, xatti-xarakati uchun o'zida ichki qoniqish xissi tug'iladi, vijdoni xotirjam bo'ladi. Agar u noto'g'ri xarakter qilganligini, axloq talablari buzilganligini bilsa, azob va ajabga tushadi. Vijdon xatti-xarakterini ma'qullab yoki qoralab turadigan baho kategoriyasidir.

Baxt.

Baxt- bu insonning o'z ijodiy kuchlarning to'lib-toshib yotganligidan ularning ijtimoiy va shaxsiy maqsadda qo'llanishidan yuksak darajada ma'naviy qoniqishi va bu tuyg'uning anglab olinishidir. Baxt xar-xil bo'ladi. Baxtni xar kim xar xil tushunadi. Baxtga erishish yo'li bilim va mehnatdir. Inson doimo o'z hayotida baxtli bo'lishga intilib yashaydi.

Hayotning ma'nosi.

Insonning maqsadli, ma'noli mantiqli yashash tarzi tushuniladi. Xar bir inson hayotida o'z o'rniga ega bo'lishiga xarakter qiladi.

Inson hayotida doimo yaxshi yashashni niyat, yaxshi maqsad uchun yashaydi. Hayotning ma'nosi kategoriyasining mohiyati insonlarni o'z o'rnini hayotdan tolishiga yordam beruvchi kategoriyadir.

Nazorat savollar:

1. Kategoriya nima.
2. Yaxshilik va yomonlikni tushuntiring.
3. Adolatni tushuntiring
4. Burchni izohlang.
5. Or-nomusni ayting
6. Vijdonni baholab bering.
7. Hayotni ma'nosini tushuntiring.
8. Baxtni tariflang.

2-asosiy savol. **Axloqning asosiy tamoyillari va qoidalari.**

Darsning maqsadi.

Talabalarga asosiy axloqiy tamoyillar haqida tushuncha berish.

Identiv o'quv maqsadlar:

1. Vatanparvarlikni biladi.
2. Insonparvarlikni sharxlay va taqqoslay oladi.
3. Baynalmillikning aytib beradi.

4. Jamoaviylikni tushuna oladi.
5. Mehnatga ongli munosabatni his etadi.
6. Axloq qoidalarini biladi va tasniflaydi.

2 - asosiy savolning bayoni.

Axloqning 5 ta tamoyili mavjud.

1. Vatanparvarlik.
2. Insonparvarlik.
3. Baynalmilallik.
4. Jamoaviylik.
5. Mehnatga ongli munosabat.

Bu tamoyillarda axloqning umumiy talablarini aks o'zida ettiradi. Axloqiy tamoyillarda axloqiy talablar birmuncha umumiy tarzda ifodalanadi. Tamoyillar axloqning eng muxim, aniq-tarixiy belgilarini, shaxs xatti-xarakatiga qo'yiladigan barcha talablarini mujassam etib, kishilar faoliyatining umumiy yo'nalishini ko'rsatadi va birmuncha aniq bo'lgan xulq qoidalariga asos bo'lib xizmat qiladi.

Vatanparvarlik- vatanga muxabbat, unga sodiqlik, uning manfaatlari yo'lida xizmat qilishga tayyor turish demakdir.

Vatan – arabcha ona-yurt, o'lka dekmakdir. Vatan bu odam tug'ilgan, tarbiyalangan, mehnat quvonchini totgan, odam manub bo'lgan, xalq tarixi bilan bog'langan xamda tarixan shakillangan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy muxitdir. Vatan ko'p qirrali tushunchadir, bu ma'lum xalq yashaydigan hudud, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzum, maishiy xayot, madaniyat, til, milliy an'analar, ya'ni kishi mansub bo'lgan jamiyatning moddiy va ma'naviy hayot sharoitlari yig'indisini o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda yoshlarni ona-Vatanga, yurtiga sadoqat ruxida tarbiyalash eng dolzarb vazifalardan biridir.

Insonparvarlik (Gumanizm). Gumanizm -lotincha insonga xos, insoniy degan manoni anglatadi. Gumanizm insonparvarlik degani. Insonparvarlik insonga bo'lgan mexribonlik chuqur insoniylik, g'axo'rlik inson ozodligini va xar tomonlama rivojlanishini aks ettiruvchi olijanob tuyg'u. Axloq normasi xulqni belgilab beradi. Agar axloqiy tamoyillar umumlashgan axloqiy tushunchalar bo'lsa, axloqiy qoidalar ularni aniqlashtirishga xizmat qiladi. Har bir tamoyil o'zida bir qator axloqiy qoidalarni o'z ichiga olib, izchillik bilan o'zgarib boradi.

Baynalmilallik. Turli xalqlar vakillarini, xalqlarni do'st, inoq, xamjihat hayot kechirishlari tushuniladi. Turli xalqlar munosabatini tartibga solib turuvchi tamoyil baynalmilallikdir. Bizning yurtimizda, 130 ga yaqin millat va elat vakillari do'stona yashamoqdalar. Chunki Prezidentimizning odilona milliy siyosati hamma millat vakillariga birdek munosabatda bo'lganligi uchun tinchlik hukm surmoqda.

Jamoaviylik – bu kishilarning birlashish xissi, ijtimoiy munosabatlar rivojlanishi davomida tarixan shakillanuvchi ijtimoiy hayotning asosi, birgalik sifatidir.

Birdamlik kishilarning manfaatlar birligiga va ularning birgalikda xarakat qilishiga, mayilligiga asoslangan e'tiqodlar birligidir. Birdamlik axloqiy tamoyil sifatida maqsad birligi, o'z irodasi, xarakati, shaxsiy manfaatlarini jamoaga bo'ysindirishga tayyorgarlik asosida shakillanadi.

Jamoaviylik – bu etilgan ijtimoiy masalalarni hal qilishda, ijtimoiy foydali maqsadga erishishda o'zaro yordam, xamkorlik, intizom va jamiyat oldida o'zaro mas'uliyatlilik munosabatlari bilan bog'langan kishilarning ixtiyoriy, ongli va erkin birlashmasidir. Jamoa tarbiya maktabi hisoblanadi.

Axloqshunoslikda axloqiy tamoyillar bilan birga axloqiy qoidalar ham bor. Xushmuomilalik, odoblilik, halollik, rostgo'ylik, soddalik, kamtarlik kabi 100 dan ortiq axloq qoidalari mavjud.

Axloq qoidalari - insonning xulq, fe'l-atvorini tartibga solib turuvchi axloqiy talablardir. Axloq qoidalari insonga jamiyat tomonidan qo'yiladi. Axloq qoidalar ijtimoiy mazmunga ko'ra

umuminsoniy xarakterga ega bo'ladi. Oddiy axloqiy qoida ijtimoiy normaning bir turi hisoblanadi. U insonning hatti harakatini boshqaradi. Axloqli kishi bu qoidalarni bajarishi shart va majburiydir. Lekin axloqiy fazilatlarni esa bajarishi shart emas. Uning majburiylik jihati yo'q.

Oddiy axloq qoidalari jamiyatning insonga bo'lgan odoblilik, oddiylik va kamtarlik, halollik va rostgo'ylik, ochiq ko'ngillik va dangasalik, saxiylik va muruvvatlilik, o'zaro hurmat, do'stona munosabat, samimiylik, sipolik, kattalarni hurmat qilish, bemorlarga hamdard bo'lish kabi qoidalarni o'rgatadi.

Aristotel, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqa mutafakkirlar oddiy axloqiy qoidalar bilan axloqiy fazilatlarni ajratib ko'rsatganlar.

Axloq qoidalari axloq talabalarining bir ko'rinishi bo'lib, ma'lum xulqni nasihat, tanbeh berish, amr-farmon, majburiyat shaklida ifodalaydi. Axloq qoidalari inson hatti harakatining ichki tomonini, shaxs tomonidan anglagan muayyan majburiyatlarni ifodalaydi, jamoatchilik fikriga asoslanadi hamda umumiy xarakterga ega bo'ladi.

Axloq-odobga oid Hadislarda inson uchun eng zarur bo'lgan axloqiy fazilatlardan hayolilik haqida ibratli fikrlar bayon qilingan. Musulmon xalqlari Xadislarni o'zlarning eng yaqin maslahatchilari, ta'lim tarbiyadagi yordamchilari sifatida o'qib, o'rganib kelishgan.

Uyat, uyalish, tortinish-hayoning bir xususiyati bo'lib, u barcha yoshdagi kishilarga xos bo'lishi kerak. Insonlar umuman bir-birlari oldida uyalish, tortinish, ya'ni o'zini yomon hatti-harakatlaridan tiya olishni bilishi kerak.

Shu o'rinda ulug' adibimiz Abdulla Qahhorning uyat haqidagi gapini eslatib o'tishni istardik: «Uyat eng shafqatsiz qonundan ham kuchliroq, qudratliroq. qonun faqat ko'z tushganda, shubha qilgandagina jinoyatchining qo'lini ushlaydi, yo'lini to'sadi. Uyat esa hamisha odobsiz, axloqsiz jinoyatchining tepasida turib, nojo'ya ishga qo'l ko'targani qo'ymaydi. Har qanday qonunga chap berish mumkin, lekin uyatga chap berib bo'lmaydi, chunki qonun odamdan tashqarida, uyat esa odamning ko'ksida bo'ladi».

Mehnatga ongli munosabat. Mehnat insonning moddiy va ma'naviy boyliklar yaratishga, umuminsoniy taqqiyotini ta'minlashga qaratilgan faoliyatidir. Mehnat jarayonida ijtimoiy xamkorlik vujudga keladi, birdamlik va intizom haqidagi, muxabbat va nafrat to'g'risidagi, yaxshilik va yomonlik haqidagi tasavvur va tushunchalar shakllanadi. O'zaro yordam, nasl-nasabga g'amxo'rlik qilish, insonga nisbatan xamdardlik singari axloqiy odat va an'analar tarkib topadi, ya'ni mehnat jismoniy va aqliy harakat, emotsional kechinmalar sifatida inson axloqiy qiyofasining shakllanishiga asos bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Inson faqat mehnat faoliyati jarayonidagina o'z-o'zini qaror toptiradi, o'z qobiliyatlarini o'stiradi. Tabiiy iste'dodlarini takomillashtiradi. Mehnatsiz u o'z insoniy mohiyatini yo'qotadi.

Mehnat jamiyat yashashning zaruriy sharti sifatida insonni kashfiyotkor, jasur, chidamli va bardoshli qilish bilan barcha intizomlilik uyushqoqlik, jipslik, kurashda fidokorlik singari axloqiy sifatlarning shakllanishiga yordam berib unga ijobiy axloqiy ta'sir ko'rsatadi.

Mehnat insonni tarbiyalaydi, shakllatiradi. Har bir inson boshqalar mehnatini e'zozlashi hurmat qilishi kerak. Insonni komillikka erishishda mehnatning roli katta.

Xulosa qilib aytganda axloq kategoriyalari va tamoyillarini yosh avlodga singdirish, o'rgatish, rioya etish ko'nikmasini shakllantirishimiz lozim.

Nazorat savollar:

1. Vatanparvarlik nima?
2. Insonparvarlikni mohiyatini ochib bering?
3. Baynalminallik haqida gapiring.
4. Jamoaviylikni tushuntiring.
5. Mehnatga ongli munosabat deganda nimani his etasiz?
6. Axloq qoidalari nima?

Mavzuga oid mustaqil ish topriqlar:

1. Mutafakkirlar axloq va adolat haqida. T.: 1995. kitobini mustaqil o'qib, o'rganish.

2. Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq». T.: 1994. asaridan asosiy axloqiy kategoriyalarga berilgan ta'rifni konspekt qilish.

Asosiy xulosalar:

1. Axloqshunoslik boshqa fanlar kabi o'z kategoriyalar tizimiga ega.
2. Yaxshilik va yomonlik axloqning asosiy kategoriyasidir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: 1994.
2. Abdulla Sher. Axloqshunoslik T.: O'AJBNT markazi 2003. 196-234 bb.
3. Aliqulov H. Mutafakkirlar axloq va adolat haqida. T.: 1995.
4. Usmonov M. Saodatnoma. T.: 1997.
5. Guseinov A. A. Apresyan. R.G. Etika. Uchebnik. M.: Gardariki 1999.7-40 bb. 27-390 bb.

5- Mavzu: NIKOX VA OILANING AXLOQIY ASOSLARI

Fanni o'qitish texnologiyasi: "Nikox va oilaning axloqiy asoslari"
mavzusidagi ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

TG 'r	Bosqichlar va bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt
1	Tayyorlov bosqichi: 1.1 Dars maqsadi: Talabalarga Nikox va oilaning mohiyati, asosiy maqsadi va vazifalari, jamiyatda tutgan o'rni haqida ma'lumot berish. 1.2. Identiv maqsadlar: 1.2.1. Nikox va oilaga tavsif bera oladi. 1.2.2. Nikox va oilaning jamiyat hayotidagi o'rnini ochib beradi. 1.2.3. Nikox va oila tushunchalarini izohlay oladi. 1.2.4. Prezident asarlarida Nikox va oila tushunchalarini yoritilishini tushuntiradi. 1.3. Asosiy tushuncha va iboralar: Nikox va oila tushunchalarining ahamiyati. 1.4. Dars shakli: guruh va mikroguruhlarda. 1.5. Foydalaniladigan metod va usullar: suhbat, ma'ruza-hikoya, baxs, videousul. 1.6. Kerakli jihoz va vositalar: Ko'rgazmali qurollar, xarita, tarqatma materiallar.	O'qituvchi
2	O'quv mashg'ulotni tashkil qilish bosqichi: 2.1. Mavzu e'lon qilinadi. 2.2. Ma'ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi.	O'qituvchi, 15 minut
3	Guruhda ishlash bosqichi: 3.1. Talabalarga muammoli savol beradi. 3.2. Talabalar fikri eshitiladi, boshqa talabalar baxsga chaqiriladi. 3.3. Umumiy xulosalar chiqariladi va to'g'riligi tekshiriladi. 3.4. Umumiy xulosaga kelinadi.	O'qituvchi- talaba, 40 minut
4	Mustahkamlash va baholash bosqichi: 4.1. Berilgan ma'lumotni talabalar tomonidan o'zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi: - Nikox va oila deganda nima tushiniladi? - Nikox va oila tushunchalariga berilgan tavsiflarni ayting? - Nikox va oilani barkamol avlod tarbiyasidagi o'rni nimalardan iborat? 4.2. Eng faol talabalar (baholash mezonini asosida) baholanadi.	O'qituvchi, 15 minut
5	O'quv mashg'ulotini yakunlash bosqichi: 5.1. Talabalar bilimi tahlil qilinadi. 5.2. Mustaqil ish topshiriqlari beriladi. 5.3. O'qituvchi o'z faoliyatini tahlil qiladi va tegishli o'zgartirishlar kiritadi.	O'qituvchi, 10 minut

Asosiy savollar:

1. Nikoh va oila tushunchalari.
2. Oilaning funktsiyalari va axloqiy asoslari.

Tayanch tushuncha va iboralar:

Nikoh, oila, Oila kodeksi, oilaning funktsiyalari: ijtimoiy xo'jalik, tarbiyaviy, sevgi, muhabbat, yakka nikohlik, er-xotinning xuquq va burchlari.

1-asosiy savol. **Nikoh va oila tushunchalari.**

Darsning maqsadi:

Talabalarga nikoh, oila tushunchasini mohiyati va uning jamiyatdagi tutgan o'rni to'g'risidagi ma'lumot berish.

Identiv o'quv maqsadlar:

1. Nikoh va oila tushunchasini biladi.
2. Oila kodeksi to'g'risida ma'lumot beradi.
3. Sevgi va muhabbatni ajrata biladi.
4. Dunyoviy va shariy nikohni farqlaydi.
5. Er va xotinning huquqi va burchlari taxlil qilib beradi.

1 - asosiy savolning bayoni:

Ikki jildlik «O'zbek tilining izoxli lug'atida» nikoxga shunday ta'rif beriladi: «Nikox er-xotinlikni shariat yo'li bilan rasmiylashtirish marosimi va shu marosimda domulla tomonidan o'qiladigan shartnoma. Yoki er-xotinlikning yuridik ravishda rasmiylashtirilgan oilaviy ittifoqi. Ikki jinsdagi voyaga etgan yoshni ixtiyoriy ravishda birga yashashga axd qilishi va guvoxlar oldida bu marosimni o'tkazilishi nikox deyiladi. Bu marosimni davlat maxkamalari tomonidan qayd qilinishi ZAGS deyiladi. Nikoxlamoq-oilaviy ittifoqni, er-xotinlikni shariat yo'li bilan rasmiylashtirmoqdir».

O'zbekistonning Oila kodeksining 17-19 moddalarida nikox ro'yxatidan o'tish shartlari va nikox tuzishga monelik qiladigan xolatlar belgilangan. Nikoxni ro'yxat qilish uchun nikoxga kiruvchilarning o'zaro roziliklari, ularning nikox yoshga, ya'ni erkaklar 18 yoshga, ayollar 17 yoshga to'lgan bo'lishlari shart. Nikoxdan o'tishga monelik qiladigan xolatlar:

- A) Erkak va ayoldan biri boshqa nikoxda bo'lsa;
- B) ular yaqin qarindosh bo'lsa;
- V) yoshlari etmasa;
- G) ruxiy kasal bo'lsa.

Nikoh erkak bilan ayolning o'zaro kelishuviga, bir-biriga bo'lgan muhabbati va hurmati tuyg'usiga asoslangan ixtiyoriy, teng xuquqli ittifoqidir. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining XIV bobi «Oila»ga bag'ishlangan: 63 moddada: Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir, xamda jamiyat va davlat muxofazasida bo'lish xuquqiga ega. Nikoh tomonlarning ixtiyoriy rozilik va teng xuquqliligiga asoslanadi. 64-modda: Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga etgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburlar; 65-modda: onalik va bolalik davlat tomonidan muxofoza qilinadi; 66-modda: voyaga etgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburlar.

Oila ijtimoiy munosabatlarni o'zida aks ettiribgina qolmay, balqi ularning rivojlanishi va o'zgarishi bilan oila ham rivojlanadi va o'z shakli o'zgartirib boradi. Shu bilan birga, oilaning iqtisodiy, sotsial, xuquqiy va axloqiy asoslari ham o'zgaradi.

Oila ijtimoiy organizmdir. Unda kishilik avlodini davom ettirish, odamning o'zini etishtirish va uni tarbiyalash vazifalari amalga oshiriladi. Oila insoniy xarakterlar, taqdirlar, o'zaro munosabatlarning murakkab olamidan iborat. Oila nikoh va qon-qardoshlik bilan bog'langan kishilarning tarixan shakillangan ittifoqidir. Er bilan xotin, ota-onalar bilan bolalar o'rtasidagi munosabatlardir.

Nikoh oilaning faqat xuquqiy asosi bo'lib, bir oilaga mansub kishilarning bir-birlari oldida va jamiyat oldida xuquq va majburiyatlarini axloqiy va xuquqiy mas'uliyatini belgilaydi. Oila nikoh asosida vujudga keladi.

Oila mehr, muhabbat, axloqiy munosabatlar orqali paydo bo'ladi. Chunki inson bir-birini sinab ko'rib, bir-biriga ma'qul bo'lganidan keyingina oila quradi. Oilani mustaxkam bo'lishida sevgi, mehr- muhabbatni axamiyati juda kattadir. «Muhabbatda minglarcha ko'rinishlar bor, ammo ularning xar biri o'z nuri, o'z g'ami, o'z baxti va o'z tarovatiga ega» degan edi yozuvchi K.T. Paustovskiy.

Sevgi maqsad emas, balki oila qurish, baxtli hayot vositasidir. Shu tufayli oila oldidagi vazifalarga muvofiq, sevgi munosabatlari ma'lum tabiiy asos zaminida vujudga keladi. Odamdagi avlodni davom ettirish instinkti va u bilan bog'liq bo'lgan boshqa jinsga intilish sevgidagi tabiiy asosni tashkil etadi. Erkak va ayol o'rtasidagi sevgi tabiiy jihatdan, ularning bir-birlariga erishuvlari va bir-biriga ega bo'lishlari maqsadini ifodalaydi. Ammo bu xali tabiiy asos xolos. Sevgining asl mazmunini ifodalaydigan tomon sevgidan erkak va ayol munosabatlarining insoniylashuvi, ma'naviy umumiylikning paydo bo'lishi va yuzaga chiqishidir. «Erkakning ayolga munosabati odamning odamga bo'lgan eng yuqori tabiiy munosabatining o'zginasidir, shuning uchun bunda odamning tabiatan xulqi va qay me'yorda insoniylik darajasiga ko'tarilganligi ko'rinadi» deb yozgan edi mutafakkirlardan biri.

Sevgi tabiiy-biologik mayillar va ijtimoiy tomonlar uyg'unlashib ketadi. Lekin oqibat natijada xamisha ijtimoiy munosabatlar, insoniylikni belgilovchi o'rnida turadi, insoniylik tabiiy mayillarni belgilaydi, yo'l-yo'riqqa solib turadi.

Sevgining dastlabki qadamlari, ko'p xollarda tashqi qiyofaning jozibasiga maftunlikdan boshlanadi. Chiroy paydo etgan xissiyot sevgi darajasiga ko'tarilishi, o'zining xaqiqiy mazmuniga ega bo'lishi uchun erkak va ayol bir-birlarida ma'naviy umumiylik, o'xshashlik, uyg'unlik topishlari kerak. Sevgining tabiati boshqa jinsga xissiy maftunkorlikdan kelib chiqmaydi, balki ma'naviy dunyosi va shaxsiy jozibasi bilan bizga yoqqan shaxsga nisbatan yuzaga keladi. Agar hayotiy xodisalarga, turmushga qarshi, baxo berish va tushunishda ularning maqsadlarida umumiylik, o'xshashlik bo'lmasa, sevgining vujudga kelishi va davom etishiga o'rin qolmaydi.

Freydizm-sevgini estetik, etik va psixalogik mazmunini undan tamomila chiqarib tashlab, faqat fizalogiyasini qoldiradi. Bu noto'g'ridir. Sevgining ijtimoiy tomoni estetik, psixologik, axloqiy, g'oyaviy-iqtisodiy va xuquqiy munosabatlar bilan tavsiflanadi. Sevgi bir-biriga bog'liq bo'lgan ikki asosga-bialogik va ijtimoiy asosga ega.

Sevgidagi umuminsoniylik elementlari: fiziologik extiros, hissiy kechinmalarning o'ziga xosligi, estetik-psixologik mavridan iborat.

Nazorat savollar.

1. Nikoh nima?
2. Oila nima?
3. Sevgi va muhabbat deganda nimani tushunasiz?
4. Nikox va oila tushunchalarini taqqoslab bekring?
5. Oila kodeksi to'g'risida gapiring.

2-asosiy savol. Oilaning asosiy funktsiyalari va axloqiy asoslari.

Darsning maqsadi:

Talabalarga oilaning asosiy funktsiyalari va axloqiy asoslari haqida tushuncha berish.

Identiv o'quv maqsadlar.

1. Oilani asosiy funktsiyalari biladi.
2. Oila funktsiyalarini bir-biri bilan taqqoslaydi.
3. Oilani asosiy tamoyillarini ajrata biladi.
4. Oiladagi er va ayol vazifalarini ajrata biladi.
5. Oilaviy muammolarni mustaqil va ijobiy hal qila oladi.

2-asosiy savolning bayoni:

Oilaning bir-bir bilan bog'liq uch funktsiyasi bor:

1. Axolini to'ldirib borish (bola ko'rish) yoki ijtimoiy funktsiya.
2. Moddiy-xo'jalik funktsiyasi.
3. Yosh avlodni tarbiyalash funktsiyasi.

Oila kodeksida ularning tamoyillari ham ko'rsatib berilgan:

- ✚ Yakka nikohlik tamoyili-bunga ko'ra har bir fuqaro bir nikohda bo'lishi kerak.
- ✚ Nikohning ixtiyoriylik va o'zaro rozilik tamoyili.
- ✚ Ajralishning erkinligi tamoyili.
- ✚ Oilada er va xotinning teng xuquqligi tamoyili.
- ✚ Bolalarni insonparvarlik ruxida tarbiyalash tamoyili.
- ✚ Oila a'zolarining bir-biriga o'zaro yordami, moddiy va ma'naviy tomondan ta'minlash tamoyili.
- ✚ Oilaning davlat tomonidan ximoyaga olinishi, onalikning rag'batlantirilishi tamoyili.

Demak nikoh erkak bilan ayolning o'zaro kelishuviga, bir-biriga bo'lgan muhabbati va hurmati tuyg'usiga asoslangan ixtiyoriy, teng xuquqli ittifoqdir. Oilada urning vazifalaridan eng muhimi xotining xaqklarini to'la ado qilishdir.

- ✚ Xotinni doim etarli rizq-ro'zi bilan ta'minlash.
- ✚ Xotinni kiyintirish.
- ✚ Xotinga odob axloq o'rgatish.
- ✚ Xotiniga sovg'a salom qilish.
- ✚ Xotiniga chiroyli ko'rinish.
- ✚ Risoladagi er xotinga lutf bilan muomila qilib uni eng chiroyli ismlar bilan chaqiradi va kamchiliklarini kechiradi.

Aqil raso, vijdonli er o'z xotini bilan totuv-inoq, yaxshi yashaydi. Oilaviy hayot er-xotin orasidagi sheriklikda kechiradigan hayotdir. Qur'oni Karimning Niso surasida: «Xotinlaringiz bilan yaxshilikda yashang, agar ularni yoqtirmasangiz, shoyadki sizga yoqmagan narsangiz ortidan Alloh sizga ko'p yaxshiliklarni ravo ko'radi» deyilgan. «Ular (xotinlar) sizlar uchun libosdir, sizlar ular uchun libossiz» deyilgan (Baraka surasi, 187 oyat).

Qur'oni Karimning «A'trof» surasida: «U (Alloh) bir jon (Odam Ato)dan va uning o'zidan sukunat topish uchun juftini yaratadi» deydi. Ya'ni «juft» xotin sukunat, osoyishtalik, orom, latofat, mehr-muhabbat ramidir.

Turmushga chiqqan har bir ayol oilaviy hayot Allohning sunnati, ulkan baxt ekanligini, bu ikki shaxsning faqat jismoniy emas, balki bashariyat kamoloti va hayotning bardavomligi ekanini tushunmog'i lozim.

Xotin oilada chiroyli amallarga odatlanmog'i lozim. Qur'oni karim, hadislar va badiiy kitoblar o'qib turishi, axborotlardan xabardor bo'lishi, haqiqatni himoya qilishi kerak. Xotin kishi o'z erining vijdoniga aylanib, uni gunoh, yomon ishlardan qaytarib savob va yaxshi ishlarga undab turishi kerak. «Bitta solih ayol o'z eriga etti kun xizmat qilsa, Alloh uning qarshisidagi do'xaxni etti eshigini yopadi va jannatning sakkiz eshigini ochadi» degan edi ulug' imom Ja'far Sodiq.

Agar xotin o'z eriga qobilyatli, shijoatli, muvofaqqiyatli, mo'min, sadoqatli shaxs deb muomila qilsa, er xuddi shunday bo'ladi. Xotin qanoatli bo'lishi kerak. Zeb-ziynatga o'ch bo'lmasligi lozim. Shoshqaloqlik, tezda achchiqlanish, talashib-tortishish, tirnoq ostida kir axtarish va boshqalarga o'xshab hayot o'tkazishni talab qilishga o'xshash kabi talablar oilaviy hayotni buzishga sabab bo'ladi.

Oila kichik bir jamiyat va uning rahbari er bo'lsa, oilaning saodatli bo'lishining shartlaridan biri ayolning erga itoatidir. Risoladagi xotin erining oldida ham obro'sini saqlaydi, o'z sharafiga muhofaza qiladi.

Er va xotinning shaxsiy xuquqlari:

- Nikohlanish paytida sharifini tanlash xuquqi.

- Er-xotinning bolalar tarbiyasi va oilaviy turmush masalarlarini birgalikda hal qilishi sohasidagi xuquqlari.
- Er-xotinning mashg'ulot, kasb va turar joy tanlash xuquqlari.
- Er va xotinning mulkiy xuquqlari.
 - Birgalikda ottirgan umumiy mulkka bo'lgan xuquqi.
 - Er va xotinning shaxsiy mulkka bo'lgan xuquqi.
 - Er va xotinning o'zaro mulkiy shartnomalar tuzish xuquqlari.
 - Er va xotinning nafaqa (aliment)ga oid xuquqlari.

Oilada sodir bo'ladigan ommaviy kelishmovchiliklar:

- Er-xotin orasidagi kelishmovchiliklar.
- Qaynona-kelin orasidagi kelishmovchiliklar.
- Qaynona-kuyov orasidagi kelishmovchiliklar.
- Ota-ona va bolalar orasidagi kelishmovchiliklardir.

Ayol kishi «Qulog'i bilan sevadi» degan gapni erkaklar aslo unutmasliklari kerak. Oilada er va xotin orasida yuzaga keladigan kelishmovchiliklarni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablar:

- ✚ Hayotda er yoki xotining ishga berilib ketishi. Ishga berilib ketgan erkak yoki ayol uyiga, turmush o'rtog'iga e'tibor bermasligi natijasida kelib chiqadi.
- ✚ Er va ayolning etakchilikni qo'lga kiritish uchun intilish.
- ✚ Er xotinning muhabbat taraqqiyotini, psixologik tasnifini bilmasliklari.
- ✚ Ayollarning uy ishlariga tayyor emasligi.
- ✚ Bola tarbiyasida ota-ona bilan onani bir xil mavqeda turmasligi.
- ✚ Er yoki xotinning temperament tiplari mos kelmasligi.
- ✚ Farzandsizlik.
- ✚ Rashq asosida yuzaga keladigan kelishmovchiliklar, va boshqalar.

Keyingi paytlarlarda oilaviy ajralishlar juda ko'payib bormoqda. bizningcha buning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- Er-xotindan birining spritli ichimlik ichishi;
- Er-xotindan birining bevafoligi;
- Engiltaklik bilan nikohdan o'tish;
- Xotinning uy-ro'zg'or tuta bilmasligi;
- Ota-onalar tufayli janjal oqibatlari;
- Iqtisodiy etishovchilik va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, oila jamiyatning kichik yachaykasidir. Oila murakkab u biron-bir stsenariyga bo'ysunmaydi.

Nazorat savollar:

- 1.Oilaning vazifalari.
- 2.Oilaning funktsiyalarini ayting.
- 3.Oila funktsiyalarini taqqoslang.
4. Oilada urning vazifalari nimadan iborat?
5. Oilada xotinning vazifalarini sanang?

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

1. O'zbekiston Respublikasi «Oila kodeksini» T.: 1998. 1-5 boblarini o'qib kelish.
2. Olimat ul-Banotning «Oila saboqlari» T.: 1991 asarini konspekt qilish.

Asosiy xulosalar:

1. Oila har qanday jamiyatning muhim va ajralmas tarkibiy qismidir.
2. O'zbekistonda oila davlat muhofazasiga olingan va O'zbekiston Respublikasi «Oila kodeksi» jahon tan olgan mezonlarga javob beradi.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. T.: 1994.
2. Rasulova M. Avvalo odam bo'l. T.: 1990.
3. Usmonov I. Barkamollik odobi. T. 1997.
4. Sodiqova T. Mehr qolur. T.: 1997.

5. Oila kodeksi. T.: 1998.
6. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. T.: 2003. 235-242 bb.

6-mavzu: AXLOQIY TARBIYA VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Fanni o'qitish texnologiyasi: "Axloqiy tarbiya va unga qo'yiladigan talablar" mavzusidagi ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

TG 'r	Bosqichlar va bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt
1	Tayyorlov bosqichi: 1.1 Dars maqsadi: Talabalarga Axloqiy tarbiya va unga qo'yiladigan talablarning mohiyati, asosiy maqsadi va vazifalari, jamiyatda tutgan o'rni haqida ma'lumot berish. 1.2. Identiv maqsadlar: 1.2.1. Axloqiy tarbiya va unga qo'yiladigan talablarga tavsif bera oladi. 1.2.2. Axloqiy tarbiyaning jamiyat hayotidagi o'rnini ochib beradi. 1.2.3. Axloqiy tarbiya va unga qo'yiladigan talablarni izohlay oladi. 1.2.4. Prezident asarlarida Axloqiy tarbiya va unga qo'yiladigan talablarni yoritilishini tushuntiradi. 1.3. Asosiy tushuncha va iboralar: Axloqiy tarbiya va unga qo'yiladigan talablarning ahamiyati. 1.4. Dars shakli: guruh va mikroguruhlarda. 1.5. Foydalaniladigan metod va usullar: suhbat, ma'ruza-hikoya, baxs, videousul. 1.6. Kerakli jihoz va vositalar: Ko'rgazmali qurollar, xarita, tarqatma materiallar.	O'qituvchi
2	O'quv mashg'ulotni tashkil qilish bosqichi: 2.1. Mavzu e'lon qilinadi. 2.2. Ma'ruza boshlanadi, asosiy qismlari bayon qilinadi.	O'qituvchi, 15 minut
3	Guruhda ishlash bosqichi: 3.1. Talabalarga muammoli savol beradi. 3.2. Talabalar fikri eshitiladi, boshqa talabalar baxsga chaqiriladi. 3.3. Umumiy xulosalar chiqariladi va to'g'riligi tekshiriladi. 3.4. Umumiy xulosaga kelinadi.	O'qituvchi- talaba, 40 minut
4	Mustahkamlash va baholash bosqichi: 4.1. Berilgan ma'lumotni talabalar tomonidan o'zlashtirilganini aniqlash uchun quyidagi savollar beriladi: - Axloqiy tarbiya va unga qo'yiladigan talablar deganda nima tushiniladi? - Axloqiy tarbiya va unga qo'yiladigan talablarga berilgan tavsiflarni aytg? - Axloqiy tarbiya va unga qo'yiladigan talablarni barkamol avlod tarbiyasidagi o'rni nimalardan iborat? 4.2. Eng faol talabalar (baholash mezonida) baholanadi.	O'qituvchi, 15 minut
5	O'quv mashg'ulotini yakunlash bosqichi: 5.1. Talabalar bilimi tahlil qilinadi.	O'qituvchi, 10 minut

	5.2. Mustaqil ish topshiriqlari beriladi. 5.3. O'qituvchi o'z faoliyatini tahlil qiladi va tegishli o'zgartirishlar kiritadi.	
--	--	--

Asosiy savollar:

1. Axloqiy tarbiya va uning tarbiya tizimidagi o'rni.
2. Shaxsni komil inson qilib tarbiyalashdagi vositalar.

Tayanch tushuncha va iboralar:

Axloqiy tarbiya, pedagogik axloq, Ta'lim to'g'risidagi qonun, Kadrlar tayyorlash to'g'risidagi milliy dastur, komil inson, tarbiya vositalari.

1-asosiy savol: **Axloqiy tarbiya va uning tarbiya tizimidagi o'rni.**

Darsning maqsadi:

Talabalarga axloqiy tarbiyaning mazmun-mohiyati haqida ma'lumot berish.

Identiv o'quv maqsadlar:

1. Axloqiy tarbiyani tushuntira oladi.
2. Tarbiyani milliy bo'lishini biladi.
3. Axloq va axloqiy tarbiya axloqini negizi bo'lishini farqlaydi.
4. Tarbiya vositalarini sanab beradi.
5. Tarbiya vositalarida axborotlardan foydalana oladi.

1-asosiy savolning bayoni:

Inson kamoloti kishilik jamiyatining hamma bosqichlarida ham umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan. Abu Rayhon Beruniy bashorat etganidek: «... Bolalarning yuz chiroyligiga ona qornidayoq zamin tayyorlanadi. Bundan keyin u chiroylilikni o'zgartiradigan kuch yo'q» («Mineralogiya» asari). Faqatgina ota-ona tarbiya orqaligina bolaning odob –axloqli, qila olish mumkin.

Ota-ona farzand tug'ilishidan oldin yomon harakatlardan tiyilishi ayol uchun qulay shart sharoit yaratilishi lozim. Sog'lom tug'ilgan farzand ota-onaning baxti, jamiyat ko'rkidir.

Xalqimizning asriy orzusi yoshlar qalbiga «Nima yaxshi-yu, nima yomon» ekanligini muhrlashdir. Xalqimiz «yaxshilik»ning «yovuzlik», «yomonlikdan» g'olib kelishini o'zining og'zaki ijodiyoti namunalaridir-ertak, rivoyat, hikmat, urf-odat, marosim va yozma yodgorliklarida bayon etib qoldirgan. Bu g'oyalar mutafakkir, ma'rifatparvar pedagog va olimlar ijodiyotida yanada sayqal topgan.

Mustaqillik sharofati tufayli ota-bobolarimiz merosini o'rganishga keng imkoniyat yaratilgan bir sharoitda I.Karimovning: «Mustaqil, ozod O'zbekistonning kelajagi, istiqboli yoshlar qo'lida, ravnaqi teran bilimli, yuksak madaniyatli avlodlarimiz qo'lida», degan chaqirig'iga amal qilish, avval oila va ota-onaning Vatan oldidagi burchi ekanligini ta'kidlash lozim.

Insonning umri uzluksiz, bosqichma-bosqich rivojlanish xususiyatiga ega. Lekin xayotning mazmunli bo'lishida beriladigan ta'lim – tarbiyaning dastlabki poydevori oilada-ota-ona tomonidan yaratiladi.

Ota-ona farzandlarini bilimli, ma'lum kasb xunar egasi, komil inson bo'lib etishishini orzu qiladi.

Bu xususiyatlarni shakllantirish uchun ota-onalar quyidagilarga ahamiyat berishi lozim:

1. Ota-onaning oilaviy ayotda ko'rgan bilganlariga suyangan xolda bolani tarbiyalash.
2. Pedagogik adabiyotlarni o'rganish va ularga amal qilish.
3. Kundalik hayotda uchraydigan voqea, xodisalarga munosabat bildirish.

«Farzand-oila baxti, quvonchi va shirin jigarbandilir». Oila quvonchini elga manzur qilish ko'p jihatdan boalarimizga o'rgantgan odob, hulq-atvorda o'z aksini topadi.

Darxaqiqat, jamiyatimizdagi uzviy ta'lim – tarbiyaning negizi, ildizida shular yotadi. Shu sababdan yosh ota-onalar kattalar tajribasiga suyangan xolda bola tarbiyasida xaqimiz yaratgan

oltin merosimiz, ya'ni urf-odat, rasm-rusum, an'analarni asos qilib olishlari, bola tug'ilgan kundan boshlab oilada qanday axloqqa ega bo'lishini ko'z oldilarida yorqin gavdalantirib amalga oshirishlari uchun ularga yuksak hulqlikni o'rgatish v tarbiyalashga doir quyidagi mavzular tavsiya etiladi «Ma'naviy – axloqiy tarbiya asoslari» kitobida

1. «Farzandga munosib ot qo'yishning karomati bormi?»
2. «Ona allasidagi mehr torlarinnig bola qalbiga ta'siri»
3. «Dastlabki odobni nimadan boshlash kerak?»
4. «Sexirli so'zlarni bolaga qachondan boshlab o'rgatish ma'qul?»
5. «Farzandingiz oldida o'z hatti – harakatlaringizning qaysi birini to'g'ri deb hisoblaysiz?»
6. «Qanday ishlar yaxshilik hisoblanadi? Nima sababdan?»
7. «Ko'cha va jamoat joylarida yurish-turish odobi».

Bolangizni jamiyat talab etayotgan tarbiya darajasiga munosib bo'lishi uchun unga tinimsiz tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish lozim.

Nazorat savollar:

1. Axloqiy tarbiya tushunchasi.
2. Axloqiy tarbiyaning tarbiya tizimidagi o'rni.
3. Axloqiy tarbiyada ota-onaning o'rni.
4. Axloqiy tarbiya mavzularini sanang.

2-asosiy savol: **Shaxsni komil inson qilib tarbiyalashdagi vositalar.**

Darsning maqsadi:

Talabalarga asosiy axloqiy tarbiya vositalari haqida ma'lumot berish.

Identiv o'quv maqsadlar:

1. Milliy tarbiya tushunchasini biladi.
2. Milliy tarbiya omillarini sanaydi.
3. Axloqiy tarbiyada adabiyotni o'rnini aytadi.
4. Axloqiy tarbiya jarayon ekanligini tushunadi.

2-asosiy savolning bayoni:

O'zbekiston mustaqillikka erishish bilan milliy maktablar, milliy g'urur, milliy tarbiya haqidagi dilimizdagi gaplar dadil yuzaga chiqq boshladi. Mustaqil davlatning milliy maktabi, o'z milliy tarbiya berish usullari bo'lishi lozim. Qadimdan Turonda milliy tarbiya berish usullari, yo'l-yo'riqlari, amaliy axloqi bo'lgan.

Bizningcha milliy maktablarimizda o'quvchilarga milliy tarbiya berishimiz uchun: Birinchidan, milliy maktab dasturi bo'lishi kerak. Ikkinchidan, barcha fan darsliklari o'quvchilarimizning milliy xususiyatlarini, mustaqillik mezonini hisobga olgan holda qayta yangilanishi zarur. Uchinchidan, o'qitish tuzumi yangilanishi kerak. To'rtinchidan, aralash ya'ni rus va o'zbek sinflari bir maktabda o'qimasligi lozim. Beshinchidan, barcha milliy maktablarda Qur'oni Karim va Hadisi sharif birinchi sinfdan boshlab o'qitilishi shart. Oltinchidan, Uyg'onish davri mutafakkirlari ijodi bo'yicha tuzilgan «Odobnoma» darsi birinchi sinfdan boshlab o'qitilishi kerak. Shundagina sharqona odob-axloqqa rioya qiladigan, ozgina uyalish, tortinish, hayoni biladigan, tushunadigan bolalarni tarbiyalashimiz mumkin. Bolalarga yoshligidanoq gunoh va sovobning farqiga borishni o'rgatishimiz kerak.

Shundagina mustaqil O'zbekistonning mustaqil fikrli, dunyoqarashli milliy tarbiyasi, milliy g'ururli insonlari tarbiyalanadi. Milliy maktablarsiz, milliy tarbiyasiz, amaliy axloqsiz O'zbekiston kelajagini qurib bo'lmaydi.

Axloq-axloq negizi. Insonga axloqlilikni hosil qilishda adabiyot fanining roli, ahamiyati beqiyosdir. «Yaxshi va yomon xulqining hammasi sharoit, tarbiya, odatlanish natijasida vujudga keldi. Yaxshi xulqqa ham odat tufayli erishiladi», -deydi Abu Ali ibn Sino. Bu odatlar, insonlarning yaxshi-yomon xulq-atvorlari adabiyotda ham aks ettiriladi. Adabiyot fani inson axloqini o'stirishda, dunyoqarashini shakillantirishda, milliy qadriyatlarni tiklashda asosiy

vositalardan biridir. Adabiyot fanini o'qitish orqali bolalarda mustaqil fikirlash, qobiliyatini, onglilikni o'stirish mumkin. Adabiyot fani bolalardagi she'r yozish, rasm chizish, ertak, ashula aytish va boshqa shu kabi turli qobilyatlarini nomoyon qilishlarida, yuzaga chiqarishda turtki vazifasini bajaradi.

Adabiyot- «adab-i-yod» ya'ni odobni yoddan bilish demakdir. Adabiyot fanining qator vazifalari bor. Shulardan biri insonlarni axloqli qilib tarbiyalash bo'lsa, ikkinchisi bolalarga estetik tarbiya berishdir.

Adabiyot, yuqorida aytganimizdek, insonparvarlikni, vatanparvarlikni, rostgo'ylikni, oliyjanoblikni, kamtarlik, xalqsevarlik kabi normalarini ham yoshlar tafakurida hosil qiladi. «Axloq-bu avvalo insof va adolat tuyg'usi, imon, halollik degani» (I.A.Karimov). Adabiyot insonda insofni, imonni hosil qiladi. Chunki badiiy obrazlarni insonga ta'siri katta bo'ladi.

Bolalarga ona yurtga sadoqatini, Vatandan g'ururlanish hislarini badiiy asarlar orqali singdirish kerak. Inson o'z-o'zidan bilimdon, aqilli odobli bo'lib qolmaydi. Bolaga avvalo ta'sir qila oladigan axloqiy tarbiya berish kerak. Bolaga obrazlar, qiziqarli voqea-hodisalar orqali axloqiy tushunchalar berilsa, uning qabul qilishi oson bo'ladi. Badiiy asarlardagi barcha obrazlar ham bolalar qalbini junbushga keltiradi. Bolalar avvalo badiiy obrazlardagi xislatlarni, fazilatlarini o'zlarida tez aks ettirishga harakat qiladilar. Ikkinchidan, badiiy adabiyot bolalarda o'z-o'zini boshqarishni, harakterini shakillantirishni ham o'rgatadi. Badiiy asarlarda turli harakatlarning tasvirlanishi bolani hayot sinovlariga bardoshli, qiyinchiliklarga sabotli qilib tarbiyalash harakterini mustahkamlash, dunyoqarashini keng bo'lishiga yordam beradi. Uchinchidan, bolalar badiiy adabiyot orqali insonlarga baho berishni ham biladilar.

Axloq har bir inson uchun havodek zarur xislat va qadriyatdir. Axloq insonda insoniylikni ko'rsatib beruvchi o'ziga xos xususiyatdir jamiyatning barcha xususiyatlari ham kishilar axloqida ko'rinadi. Shu jihatdan olganda, axloq inson xususiyatlarini ko'rsatib beruvchi oynadir va inson kamolotida asosiy tarbiya vositasidir.

Nazorat savollar:

1. Axloqiy tarbiya nima?
2. Tarbiyaning milliyligi nima?
3. Axloq axloq negizi degan jumlaning sharxlang?
4. Tarbiya vositalarini sanang?
5. Axloqiy tarbiyani vositasi bo'lmish badiiy adabiyot haqida gapring?

Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari:

1. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi qonunni o'rganib kelish.
2. Hasanboev J., Turobbova M., Xasanboeva O. Ma'naviy axloqiy tarbiya asoslari. (T.: 2000.) kitobning 17-50 betlarini konspekt qilish

Asosiy xulosalar:

1. Axloqiy tarbiya tarbiya tizimida alohida o'riniga ega.
2. Adabiyot fani axloqiy tarbiya berishning eng muhim vositalaridan biridir.
3. O'zbekiston Respublikasining «Oila kodeksi» jahon tan olgan mezonlarga javob beradi.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. T.: 1999. 8-30 bb.
2. Xasanboev J., Turobbova M., Xasanboeva O. Ma'naviy axloqiy tarbiya asoslari. T.: 2000. 112 b.
3. Ochilov M., Ochilova N. O'qituvchi odobi. T.: 1997. 136 b.
4. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. T.: 2003. 148-150 bb.

«Axloqshunoslik» fanidan seminar mashg'ulotlar rejasini

Hurmatli talaba, Siz ushbu fan yuzasidan 4 ta mavzuda 4 ta seminar mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rishingiz lozim. Har bir mavzuda 4 tadan savollar qo'yilgan. Siz seminar mashg'ulotiga tayyorlanayotganingizda yuqoridagi jadvaldagi seminar mashg'ulotlar uchun

berilgan adabiyotlardan foydalanasiz. Adabiyotlar: (A) asosiy va (B) qo'shimcha adabiyotlarga ajratilgan. Jadvalning 1-ustunida mavzuning nomi, 2-ustunida ko'riladigan masalalar, 3-ustunda asosiy adabiyot tartibi va uning sahifasi berilgan.

№	Mavzular nomi	Mavzular mazmuni	Adabiyotlar:	
1	Axloqshunoslik ning bahs mavzusi	1. Axloq odob, odat, hulk tushunchalari. 2. Axloqning ta'rif va talqini. 3. Axloqning hayotdagi o'rni. 4. Axloqning boshqa fanlar bilan aloqasi.	1.- 3-160 2.-3-32 3.-5-21 4.-7-40 5.-3-7	6.-19-24 7.-5-20 8.-147-194 9.-5-49 10.-3-18
2	Uyg'onish davri Markaziy osiyo mutafakkirlarining axloqiy qarashlari	I. Markaziy Osiyo mutafakkirlari: 1. Farobiyning fozil inson haqidagi ta'limoti. 2. Beruniy va Ibn Sinoning asosiy axloqiy fazilatlar haqida. 3. Navoiyning Komil inson g'oyasi. 4. Koshifiyning mukammal inson haqidagi ta'limoti.	1.- 3-160 2.-3-32 3.-44-72 4.- 5.-3-16	6.-3-136 7.-114-141 8.-3-208 9.-3-112 10.-20-32
3	Nikoh va oilaning axloqiy asoslari	1. Oila tushunchasining ta'rif va talqini. 2. Mustaqillik va oila muammolari. 3. Oilada bola tarbiyasi. 4. Oila kodeksi.	1.- 3-160 2.- 3-32 3.- 235-242 4.- 5.- 3-16	6.-3-136 7.-102-114 8.-147-202 9.-3-17 10.-37-131
4	Axloqiy tarbiya va unga qo'yiladigan talablar	1. Axloqiy tarbiya tushunchasi. 2. Axloqiy tarbiya tarbiya tizimidagi o'rni. 3. Axloqiy tarbiya va tarbiyachi. 4. Shaxsni komil inson qilib tarbiyalashdagi vositalar.	1.- 3-160 2.-3-32 3.-44-72 4.- 5.-3-16	6.-3-136 7.-114-141 8.-3-208 9.-3-112 10.-20-32

A) Asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I. Istiqloq va axloq. T.: 1994.
2. Karimov I. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. T.: 1999. 3-32 bb.
3. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. T.: 2003. 256 b.
4. Guseynov A., Apresyan R. Etika. M. 1999. 300 b.
5. Qori Nizomuddin Mulla Hasan. Ilmi axloq. T.: 1994. 16 b.
6. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari. T.: 1994. 136 b.
7. Shermuhammedov Ya., Turmuhammedov Ya. Hulk va muomila madaniyati. T.: 1974. 144 b.
8. Safo Ochil. Mustaqillik axloqi va tarbiya asoslari. T.: 1995. 308 b.
9. Xasanboev J., Turopova M., Hasanboeva O. Ma'naviy axloqiy tarbiya asoslari. T.: 2000. 112 b.
10. Ochilov M., Ochilova N. O'qituvchi odobi. T.: 1997. 136 b.

B) Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Karimov I. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.: 1995.
2. Karimov I. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: 1999.
3. Karimov I. Olloh qalbimizda, yuragimizda. T.: 1999.
4. Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: 1997.
5. Axloq-odobga oid hadis namunalari. T.: 1991.
6. Temur tuzuklari. T.: 1991.
7. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. 1-kitob. T.: 1996.
8. Ziyomammedov Yo va b. Axloqshunoslik. T.: 2000.
9. M. Isoqov. Ezgu o'y, ezgu so'z, ezgu amal kitobi. T.: 2001.
- Avesto. T.: 2001.
10. Yo'ldosheva M. Muvaffaqiyat kaliti. Etiket. T.: 2004. 64 b.
11. Aliqulov A. Mutafakkirlar axloq va adolat haqida. T.: 1995. 48 b.
12. Yusupov E. Yoshlar o'rtasida vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirish yo'llari. T.: 1996. 28 b.
13. Jumaboev Y. O'zbekistonda falsafa va axloqiy taraqqiyoti tarixidan. T.: 1997.
14. Mahmudov R. Husayn Voiz Koshifiy axloqshunos olim. Guliston.: 1990. 36 b.
15. Usmonov R. Saodatnoma. T.: 1997.
16. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohut axloq. T.: 1994.
17. Jo'shon. Murshidi Komil hikmatlari. T.: 2004.
18. Amir Temur o'g'itlari. T.: 1992.
19. Mahmudov K. Turmush ziynati. T.: 1991.
20. Olimat ul-Banot. Oila saboqlari. T.: 1991.

TALABALAR MUSTAQIL ISH TOPSHIRIQLARI

Mustaqil ish topshiriqlari Oliy va O'rta maxsus ta'lim Vazirligining 34-sonli (21.02.05) buyrug'iga va GulDU da ishlab chiqilgan maxsus Nizomga asosan ishlab chiqilgan. U 4 soatga mo'ljallangan. Mustaqil ishning maqsadi talabalarda muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Talaba mustaqil ishining vazifalari quyidagilardan iborat:

- yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirish;
- kerakli ma'lumotlarni izlab topish;
- axborot manbalaridan samarali foydalanish;
- o'quv va ilmiy adabiyotlar bilan ishlash;
- elektron o'quv adabiyotlari bilan ishlash;
- INTERNET tarmog'idan foydalanish;
- ma'lumotlar bazasini tahlil etish;
- ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash;
- topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashish;
- ishlab chiqilgan g'oya va takliflarni himoya qilishdan iborat.

Shu maqsaddan kelib chiqib, «Axloqshunoslik» fanidan 5 banddan iborat 2 ta mavzu bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari tuzildi va talabalar e'tiboriga tavsiya etilmoqda.

Topshiriqlar: ma'ruza matnini o'zlashtirish, mustaqil uy vazifasi, konspekt qiladigan adabiyotlar ro'yhati, testlarni echa bilish, tezislar tayyorlash, mavzu bo'yicha adabiyotlar va manbalardan iborat.

1—TMI. Mavzu: Islom axloqi

1.1. Mavzu matnini o'zlashtirish

- Islom va axloqning uyg'unligini aniqlash.
- Hozirgi shaoritda islom axloqini ahamiyatini ko'rsatish.
- Islomda komil inson axloqiy fazilatlarini talqin etish.

1.2. Mustaqil uy vazifasi

- Qori Nizomuddin Mulla Hasan. Ilmi axloq. T.: 1994. kitobini 3-16 betlarini o'qib kelish.
- Imonli kishi axloqiy fazilatlarini aniqlab kelish. Qur'oni Karim (2:177) T.: 1992.

1.3. Konspekt uchun adabiyotlar

- Axloq-odobga oid xadis namunalar. T.: 1992, 12-168 bb.
- Muhammad payg'ambar qissasi. T.: 1991, 92 b.

2.4. Testlarni echa bilish.

1. Qur'onni "ochuvchi", "qalbi" nomini olgan suralarini berilgan.

- A) Falak, Tavba. B) Baqara, Mulk.
V) Fotiha, Yosin. G) Yunus, Kavsar.

2. Taqvodor inson fazilatlari qaysi surada aytilgan.

- A) Nos surasida. B) Yusuf surasida.
V) Baqara surasida. G) Falak surasida.

1.5. Tezislar tayyorlash.

1- 2- 3-

Adabiyotlar va manbalar.

- Abdulla Sher. Axloqshunoslik. T.: 2003. 44-58 bb.
- Qori Nizomuddin Mulla Hasan. Ilmi axloq. T.: 1994. 3-16 bb.

2-TMI. Mavzu: **Axloqning asosiy kategoriyalari.**

2.1. Mavzu matnini o'zlashtirish

- Axloq kategoriyalar tizimini o'rganish.
- Axloqning asosiy kategoriyalarini o'rganish.
- Axloq kategoriyalarining boshqa fan kategoriyalari bilan taqqoslash.

2.2. Mustaqil uy vazifasi

- Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari. T.: 1994. kitobidan axloq kategoriyalariga oid (13-15, 119-29, 100-103, 126-128 bet) bandlarni konspekt qilish.
- Yo'ldosheva M. Muvaffaqiyat kaliti. Etiket. T.: 2004. kitobining 9-20 betlarini konspekt qilish.

2.3. Konspekt uchun adabiyotlar

- Avloniy A. Turkiy guliston yohut axloq. T.: 1994.
- Jo'shon. Murshidi komil hikmatlari. T.: 2004.

2.4. Testlarni echa bilish.

Axloq kategoriyalari nechta ?

- A) 6 ta B) 7 ta
V) 10 ta G) 12 ta

Axloq kategoriyalariga maxsus bag'ishlangan asarni kim yozgan?

- A) Shermuhammedov S. B) Abdulla Sher
V) Jumaboev Y. D) Shayxova X

2.5. Tezislar tayyorlash.

1- 2- 3-

Adabiyotlar va manbalar.

- Abdulla Sher. Axloqshunoslik. T.: 2003. 196-214 bb.
- Guseynov A., Apresyan R. Etika. M. 1999.

AXLOQ FANIDAN REFERAT MAVZULARI:

1. I. Karimov asarlarida axloqiy masalalarning qo'yilishi.
2. I. Karimov asarlarida vatanparvarlik tuyg'usining yoritilishi.
3. Farobiyning axloqiy qarashlari
4. Beruniyning axloqiy qarashlari

5. Ibn Sinoning axloqiy qarashlari
6. Navoiyning axloqiy qarashlari
7. Koshifiyning axloqiy qarashlari
8. Avloniyning axloqiy qarashlari
9. Amir Temur tuzuklari axloqiy fazilatlar haqida
10. Qur'on va axloq.
11. Hadislarda axloq masalasi.
12. Islom axloqi va unig o'ziga hosligi.
13. Tasavvuf axloqi.
14. Faqir inson fazilatlarlari.
15. Mukammal inson fazilatlarlari.
16. Futuvvat axloqi.
17. Komil inson axloqi.
18. Barkamol inson fazilatlarlari.
19. Imonli kishi fazilatlarlari.
20. Adabiyot va axloq.
21. Yoshlar axloqidagi asosiy qusurlar.
22. Yaxshilik va yomonlik.
23. Adolat.
24. Vijdon.
25. Burch.
26. Baxt.
27. Or-nomus.
28. Sevgi va muhabbat
29. Pedagog axloqning o'ziga xosligi.
30. Tadbirkor axloqi.

AXLOQ FANIDAN KONSTPEKT QILINADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Unsurulmaoliy Kaykovus. Qobusnoma. T.: 1994.
2. Sa'diy Sheroziy. Guliston. T.: 1995.
3. Sa'diy Sheroziy. Bo'ston. T.: 1997.
4. Abdurahmon Jomiy. Bahoriston. T.: 1998.
5. Alisher Navoiy. Mahbubul qulub. T.: 1983.
6. Xotamnoma. T.: 1988.
7. Oz-oz o'rganib dono bo'lur. T.: 1982.
8. Mirzakalon Ismoilij. Inson xusni. T.: 1989.
9. Jumaboev Y. O'zbekistonda falsafa va axloqiy taraqqiyoti tarixidan. T.: 1997.
10. Usmonov R. Saodotnoma. T.: 1997.
11. Al Buxoriy. Al adab al mufrad. T.: 1991.
12. Axmad Yassaviy. Xikmatlar. T.: 1991.
13. Amir Temur o'gitlari. T.: 1992.
14. Aziziddin Nasafiy. Zubdat ut haqoyiq. T.: 1996.
15. Fitrat. Oila. T.: 1999.
16. Durdonalar hazinasi. T.: 1999.
17. Maxmudov K. Mehmonnoma. T. : 1989.
18. Mahmudov K. Turmush ziynati. T.: 1991.
19. Mahmudov R. Degonimni ulusg'a marg'ub et... T.: 1992.
20. Abdullo Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: 1994.
21. Sodiqova T. Mehr qolur. T.: 1997.
22. Jo'shon A. Murshidi komil xikmatlari. T.: 2004.
23. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. T.: 1998.
24. Ochilov M. Ochilova N. O'qituvchi odobi. T.: 1997.

25. Ulfat Maxkamov. Axloq-odob saboqlari. T.: 1994.
26. Olimat ul Banot. Oila saboqlari. T.: 1991.
27. Rizouddin ibn Faxriddin. Oila. T.: 1991.
28. Axloq-odobga oid hadis namunalari. T.: 1991.
29. Yo'ldosheva M. Muvaffaqiyat kaliti. Etiket. T.: 2004.
30. Aliqulov A. Mutafakkirlar axloq va adolat haqida. T.: 1995.

AXLOQ FANIDAN TEST:

1. Axloq arabcha qaysi so'zning ko'plikdagi ma'nosini anglatadi?
A) odob
B) xulq
V) etika
D) amal
2. Axloq dastlab qaysi mamlakatlarda paydo bo'lgan.
A) Eron, Turkiya.
B) Urartu, Kushon.
V) Xindiston, Xitoy.
D) Yunoniston, Rim
3. Axloqning asosiy funksiyasini to'g'ri ko'rsating.
A) baholash.
B) aks ettirish.
V) boshqarish.
D) to'g'ri javob yo'q.
4. Axloqshunoslik atamasini ilmiy muomalaga kim kiritgan?
A) Sokrat
B) Parmenid
V) Aristotel
D) Platon
5. Qadimgi yunonlar axloqni nima deb ataganlar?
A) etika
B) estetika
V) filosofiya
D) pedagogika
6. Axloqni qaysi kategoriyasi «majburiyat»ni bildiradi?
A) baxt
B) burch
V) adolat
D) vijdon
7. Axloqiy kategoriyalar nechta?
A) 5 ta
B) 6 ta
V) 7 ta
D) 8 ta
8. Vatan tushunchasi bizga qaysi tildan kirib kelgan?
A) rus
B) arab
V) fors
D) frantsuz
9. «Vatan - sajdagohimdir»-deb kim aytgan edi?
A) G'.G'ulom.
B) U.Nosir.
V) Cho'lpon

- D) A.Qodiriy
10. Quyidagi kim ko'proq insonparvarlik otashin kuychisi hisoblanadi?
- A) Ulug'bek
- B) Navoiy
- V) Bobur
- D) Mashrab
11. Axloqiy qoidalaridan «Sabr» Qur'oni Karimda necha bor tilga olingan?
- A) 30
- B) 40
- V) 50
- D) 60
12. «Axloqiy Muhsini» asarining muallifi kim?
- A) A.Avloniy
- B) A.Navoiy
- V) A.Jomiy
- D) V.Koshifiy
13. Fuqarolarning ixtiyoriy ravishda birga yashashga axd qilishi nima?
- A) sevgi
- B) muhabbat
- V) nikoh
- D) jamoa
14. Oila kodeksi qachon qabul qilingan?
- A) 1994 yil
- B) 1996 yil
- V) 1998 yil
- D) 2000 yil
15. O'zbekistonda nikoh yoshi erkak va ayollar uchun qancha?
- A) 18-18
- B) 17-17
- V) 17-18
- D) 19-18
16. Axloqiy tarbiya qanday jarayon?
- A) maktab jarayoni.
- B) oliy dargohlar jarayoni.
- V) uzluksiz jarayon.
- D) oilaviy jarayon
17. Quyidagilardan kim «Qosusnoma» asarini muallifi.
- A) Farobiy
- B) Kaykovus
- V) Navoiy
- D) Bobur
18. Axloqning «Egizaki», «odobni yodlatadigan ilm qaysi?
- A) san'at
- B) adabiyot
- V) odobnoma
- D) din
19. «Shayx ur-ra'is» nomi bilan mashxur alloma kim?
- A) Navoiy
- B) Bobur
- V) Ibn Sino
- D) Umar Hayyom
20. Alisher Navoiyning asosiy axloqiy asarini ko'rsating.

- A) Xamsa
 - B) Mubayyin
 - V) Muhokatul lug'atayn
 - D) Mahbub ul-qulub
21. Noto'g'ri javobni aniqlang.
- A) Qobusnoma-Kaykovus
 - B) Baxt saodatga erishuv haqida risola - Farobiy
 - V) Bo'ston- Koshifiy
 - D) Guliston-Sa'diy
22. 20-asr boshlarida mashhur bo'lgan, «Turkiy guliston yohud axloq» asarining muallifi?
- A) Niyoziy
 - B) Avloniy
 - V) Cho'lpon
 - D) Fitrat
23. «Najot yo'li» va «Oila yoki oila boshqarish tartibi» nomli axloqshunoslikka doir asarlar muallifi kim?
- A) Niyoziy
 - B) Avloniy
 - V) Cho'lpon
 - D) Fitrat
24. Axloqning asosiy tushunchasi nima?
- A) burch
 - B) yaxshilik va yomonlik
 - V) vijdon
 - D) or-nomus
25. O'zi biror qadriyatni belgilamaydigan, lekin qadriyatlar orasidagi nisbatni belgilaydigan, ularni baholash ma'qomiga ega bo'lgan axloqiy mezoniy tushunchani aniqlang.
- A) Adolat
 - B) Burch
 - V) Muhabbat
 - D) Or-nomus
26. Mohiyatan jamiyat, davlat va shaxslarga muayyan individdagi munosabat, ular orasidagi majburiyat – bu...
- A) yaxshilik
 - B) muhabbat
 - V) burch
 - D) vijdon
27. Qaysi qomusiy alloma «Baxt har bir inson intiladigan maqsad, zotan u muayyan komillikdir» degan edi?
- A) Farg'oniy
 - B) Yusuf Xos Xojib
 - V) Farobiy
 - D) Beruniy
28. Qadimiy shumerliklarda axloqiy me'yorlarning bajarilishini maxsus kuzatib turgan quyosh ma'budi nomini aniqlang?
- A) Nanshe
 - B) Amon Ra
 - V) Utu
 - D) Mitra
29. Qadimgi Misrda axloq-odob masalalariga bag'ishlangan, bizgacha etib kelgan eng qadimgi pandnomani aniqlang?
- A) Pxetaton o'gitlari

- B) Gilgamesh dostoni
 - V) Axloqiy o'gitlar
 - D) Ho'jayining qul bilan suhbat
30. «Nimaiki qonuniy bo'lsa, o'sha adolatdandir» degan qadimgi Yunon mutafakkiri kim?
- A) Aristotel
 - B) Platon
 - V) Sokrat
 - D) Fales
31. Qadimgi Yunon axloqshunosligida «g'oyalar va soyalar dunyosi» nazariyasi kimniki?
- A) Aristotel
 - B) Platon
 - V) Pifagor
 - D) Suqrot
32. «Muallimi avval»ning axloqiy qarashlari uning qaysi asarlarida o'z aksini topgan?
- A) Siyosat, Ritorika, Katta axloq kitobi
 - B) Nikomaxning axloq kitobi, Evdemsning axloq kitobi, Kata axloq kitobi
 - V) Metafizika, Logika, Etika
 - D) Organon, Fizika, Metafizika
33. «Adolat hamma uchun bir xil, chunki u odamlararo munosabatlardagi foydali xodisa, lekin muayyan mamlakatlarning o'ziga xosligi nuqtai nazaridan va shunga o'xshash boshqa sharoitlarda adolat barcha uchun bir xilda bo'lmay qoladi» so'zlar muallifi kim?
- A) Aristotel
 - B) Platon
 - V) Epikur
 - D) Pifagor
34. «Ihyo ul-ulum ad-din» asari muallifi kim?
- A) Hasan Basriy
 - B) Yusuf Hamadoni
 - V) G'azzoliy
 - D) Farobiy
35. «Futuvatnomai sultoni» asarining muallifi kim?
- A) A.Navoiy
 - B) V.Koshifiy
 - V) Jomiy
 - D) Bobur
36. «Axloqi Jaloliy» asarining muallifi kim?
- A) A.Navoiy
 - B) Bobur
 - V) Davoniy
 - D) Jomiy
37. Oilaning asosiy tamoyillarini toping
- A) Nikohning ixtiyoriyligi
 - B) Er va xotinning tengligi
 - V) Yakka nikohlik
 - D) Ajralishning erkinligi
38. Qur'oni Karim «A'rof» surasida odamni jufti nimaga qiyoslanadi?
- A) gulga
 - B) bulbulga
 - V) sukunatga
 - D) tinchlikka
39. Ayol kishi «Qulog'i bilan sevadi», er-chi?
- A) «Aqli»

- B) «Og'zi»
 V) «Oshqozoni»
 D) «Tanasi»
40. Prezidentimizning «Olloh qalbimizda va yuragimizda» asari qachon yozilgan?
 A) 1995 y
 B) 1996 y
 V) 1997 y
 D) 1999 y
41. Islom axloqi nimadan boshlanadi?
 A) namozdan
 B) imondan
 V) ro'zadan
 D) nafsni tiyishdan
42. Islom axloqiy qoidalarini tartibga soluvchi qonun-qoidalar majmuasi.
 A) tariqat
 B) kodeks
 V) tuzuk
 D) shariat
43. Islom ahloini mohiyati nima?
 A) ezgulik
 B) tinchlik
 V) adolat
 D) sabr
44. Islomda «Komil inson» nima deb ataladi?
 A) Yaxshi odam
 B) Imonli kishi
 V) farishta
 D) orif
45. Islomda amallar qanday guruxlarga ajratiladi?
 A) savob va gunox
 B) fayz va baraka
 V) sunnat va farz
 D) xalol v xarom
46. Islom axloq kodeksi nimani bildiradi?
 A) to'plamni
 B) islom qoidalarini
 V) namoz usullarini
 D) taqvodor inson fazilatlarini
47. Islom axloqining asosiy manbasini toping.
 A) oyatlar
 B) maqollar
 V) Qur'oni Karim
 D) Hadislar
48. I.Kantning qaysi asarlari axloqshunoslik va axloqiy muammolarga bag'ishlanadi?
 A) «Sof aqlning tanqid»
 B) «Huquq falsafasi»
 V) «Hulq metafizikasi»
 D) barchasi to'g'ri
49. Siddixarta Gautama (Budda) anglab etgan haqiqat nechta edi?
 A) 2
 B) 3
 V) 4

D) 5

50. O'zbekistonlik mashhur axloqshunos olimi kim?

A) N.Hoshimova

B) G.Tulenova

V) X.Shayxova

D) Z.Qodirova

NAZORAT SAVOLLAR:

1. Axloqshunoslik fani tadqiqot doirasini ayting.
2. Axloqshunoslikni o'ziga xos falsafiy fan sifatidagi o'rnini izohlab bering.
3. Axloqning boshqa ijtimoiy fanlar bilan munosabatini ko'rsating.
4. Axloqshunoslik fanining ahamiyatini izohlang.
5. "Axloq" iborasi mazmun-mohiyatini tushuntiring.
6. Xulqni odobdan farqini ayting.
7. Zamonaviy Axloqshunoslik oldida qanday vazifalar mavjud.
8. Axloqshunoslikning bahs mavzusi.
9. Axloqiy tafakkur taraqqiyot bosqichlari.
10. Markaziy Osiyo axloq ilmini Vatani.
11. Islom axloqi?
12. Olloh payg'ambarlarning axloqiy sifatleri?
13. Qur'oni Karimda axloq haqida.
14. Choriyorlar axloqi?
15. Hadislarda aholoq haqida.
16. Imon, islom, ehsonni farqlab bering?
17. Markaziy Osiyodagi eng qadimgi axloqiy fikrlar.
18. Mutaakkirlarning axloqiy qarashlari o'rtasidagi uzviylik haqida ayting.
19. Farobiyning axloqiy qarashlarini bayon eting.
20. Beruniy va Ibn Sino axloqiy ta'limolarini tushuntirib bering.
21. Pandnomalar haqida so'zlab bering
22. Navoiyning axloqiy ta'limotida «Mahbub ul-qulub» qanday o'rin egallaydi?
23. Navoiyni tasavvuf axloqiga doir asarlarini tushuntirib bering.
24. Koshifiyning axloqiy qarashlarini o'ziga xosligini gapirib bering.
25. Koshifiyning «Axloqi Muxsini» asari haqida so'zlab bering.
26. Kategoriya tushunchasi.
27. Yaxshilik va yomonlik tushunchasi.
28. Adolat tushunchasi.
29. Burch tushunchasi.
30. Or-nomus tushunchasi.
31. Vijonni baholab bering.
32. Hayotni ma'nosi tushunchasi.
33. Baxt tushunchasi.
34. Vatanparvarlik nima?
35. Insonparvarlikni mohiyatini ochib bering?
36. Baynalminallik haqida gapiring.
37. Jamoaviylikni tushuntiring.
38. Mehnatga ongli munosabat deganda nimani his etasiz?
39. Axloq qoidalari nima?
40. Nikoh nima?
41. Oila nima?
42. Sevgi va muhabbat deganda nimani tushunasiz?
43. Nikox va oila tushunchalarini taqqoslab bering?
44. Oila kodeksi to'g'risida gapiring.
45. Oilaning funktsiyalarini ayting.

46. Oila funktsilarini taqqoslang.
47. Axloqiy tarbiya nima?
48. Tarbiyaning milliyligi nima?
49. Axloq axloq negizi degan jumlaning sharhlang?
50. Tarbiya vositalarini sanang?

O'TILGAN MAVZULAR BO'YICHA YAKUNIY XULOSALAR:

Ko'rib chiqilgan mavzular yuzasidan quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

- Axloqshunoslik eng qadimgi inson haqidagi fandir.
- Axloqshunoslik o'zining tarixiy taraqqiyot bosqichlariga ega.
- Markaziy Osiyoda axloqiy ta'limotlar shakllanishida va rivojlanishida axloqiy qoidalarini o'rni beqiyosdir.
- Islom axloqi axloq tizimida alohida ahamiyat kasb etadi..
- Markaziy Osiyo mutafakkirlarining axloqiy qarashlarida komil inson axloqi mezonlari ishlab chiqilgan.
- Markaziy Osiyo mutafakkirlarining axloqiy qarashlaridagi asosiy mavzu-insonni ulug'lash-gumanizmdir.
- Axloqshunoslik boshqa fanlar kabi o'z kategoriyalar tizimiga ega.
- Yaxshilik va yomonlik axloqning asosiy kategoriyasidir.
- Oila har qanday jamiyatning muhim va ajralmas tarkibiy qismidir.
- O'zbekistonda oila davlat muhofazasiga olingan va O'zbekiston Respublikasi «Oila kodeksi» jahon tan olgan mezonlarga javob beradi.
- Oila jamiyatning muhim va ajralmas tarkibiy qismidir.
- O'zbekiston Respublikasining «Oila kodeksi» jahon tan olgan mezonlarga javob beradi.
- Markaziy Osiyo - Axloqshunoslikning Vatanidir.

FAN BO'YICHA ECHIMINI KUTAYOTGAN ILMIY MUAMMOLAR

- Axloqiy ongning paydo bo'lishi masalasi.
- Axloqiy fikr taraqqiyot bosqichlarini davrlashtirish masalasi.
- Islom axloqining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash.
- Islom axloqini Qun'oni karim va hadislar asosida o'rganish.
- Markaziy Osiyo axloqshunosligining o'ziga xosligi.
- Markaziy Osiyo mutafakkirlar axloqida komil inson muammosi.
- Axloqning kategoriya tizimini aniqlash.
- Nikox va oilaning axloqiy asoslari.
- Sevgi va muhabbat muammosi.

INFORMATSION TA'MINOT:

1. Adabiyotlar:

1. Karimov I. Istiqloq va axloq. T.: 1994.
2. Karimov I. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. T.: 1999. 32 b.
3. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. T.: 2003. 256 b.
4. Guseynov A., Apresyan R. Etika. M. 1999.
5. Qori Nizomuddin Mulla Hasan. Ilmi axloq. T.: 1994. 16 b.
6. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari. T.: 1994. 136 b.
7. Shermuhammedov Ya., Turmuhammedov Ya. Hulq va muomila madaniyati. T.: 1974.
8. Safo Ochil. Mustaqillik axloqi va tarbiya asoslari. T.: 1995. 208 b.
9. Xasanboev J., Turopova M., Hasanboeva O. Ma'naviy axloqiy tarbiya asoslari. T.: 2000. 112 b.
10. Ochilov M., Ochilova N. O'qituvchi odobi. T.: 1997. 136 b.

Qo'shimcha:

1. Karimov I. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.: 1995.
 2. Karimov I. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: 1999. 32 b.
 3. Karimov I. Olloh qalbimizda, yuragimizda. T.: 1999. 30 b.
 4. Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: 1997.
 5. Axloq-odobga oid hadis namunalari. T.: 1991.
 6. Temur tuzuklari. T.: 1991. 112 b.
 7. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. 1-kitob. T.: 1996.
 8. Ziyomammedov Yo va b. Axloqshunoslik. T.: 2000.
 9. M. Isoqov. Ezgu o'y, ezgu so'z, ezgu amal kitobi. T.: 2001.
 - Avesto. T.: 2001.
 10. Yo'ldosheva M. Muvaffaqiyat kaliti. Etiket. T.: 2004. 64 b.
 11. Aliqulov A. Mutafakkirlar axloq va adolat haqida. T.: 1995. 48 b.
 12. Yusupov E. Yoshlar o'rtasida vatanparvarlik tarbiyaini amalga oshirish yo'llari. T.: 1996. 28 b.
 13. Jumaboev Y. O'zbekistonda falsafa va axloqiy taraqqiyoti tarixidan. T.: 1997.
 14. Mahmudov R. Husayn Voiz Koshifiy axloqshunos olim. Guliston.: 1990. 36 b.
 15. Usmonov R. Saodatnoma. Tanlangan asarlar. T.: 1997. 368 b.
 16. A.Avloniy. Turkiy guliston yohut axloq. T.: 1994.
 17. Jo'shon. Murshidi Komil hikmatlari. T.: 2004.
 18. Amir Temur o'g'itlari. T.: 1992. 64 b.
 19. Mahmudov K. Turmush ziynati. T.: 1991.
 20. Olimat ul-Banot. Oila saboqlari. T.: 1991.
2. Internetdan olish mumkin bo'lgan ma'lumotlar saytlari.

Internetdan ma'lumot olish mumkin bo'lgan saytlar:

www.istedod.uz
www.akademik.ru
www.islom.uz
www.ziyo.net
www.pedagog.uz
www.kutubxona.uz
<http://G'G'www.guldu.uzG'> - Guliston Davlat Universiteti sayti
<http://G'G'www.gduportal.uzG'> - Guliston Davlat Universiteti ichki axborot ta'lim portali
<http://G'G'www.edu.uzG'> - Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi portali
<http://G'G'www.istedod.uzG'> - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Iste'dod jamg'armasi
<http://G'G'www.ziynet.uzG'> - O'zbekiston axborot ta'lim tarmog'i
<http://G'G'www.uzG'> - Milliy qidiruv tizimi
<http://G'G'www.uforum.uzG'> - O'zbekiston forumchilari sayti
<http://G'G'guldu.zn.uzG'> - Guliston Davlat Universiteti ziynetdagi blogi
<http://G'G'www.ref.uzG'> - Feferatlar kolleksiyasi
<http://G'G'www.dissertant.uzG'> - Yosh olimlar portali
<http://G'G'www.goldenpages.uzG'> - O'zbekistonning oltin sahifalari
<http://G'G'www.e-darslar.netG'> - Elektron onlayn darslar manzili
<http://G'G'www.vlibrary.freenet.uzG'> - Elektron darsliklar kutubxonasi
<http://G'G'www.multimedia.uzG'> - Multimetriya umumta'lim dasturlarini rivojlantirish markazi
<http://G'G'www.talim.uzG'> - Masofaviy o'qitish ta'lim markazi
<http://G'G'www.ilm.uzG'> - Masofaviy ta'lim va test o'tkazish tizimi
<http://G'G'www.DTM.uzG'> - Test markazi sayti

«AXLOQSHUNOSLIK» FANIDAN GLOSSARIY

Yaxshilik va yomonlik- axloqiy ongning birmuncha umumiy va markaziy tushunchasi bo'lib, axloqlilik bilan axloqsizlikning farqi va karama-qarshiligini yaxlit bir shakilda ifoda etadi. Kishilar bu kategoriyalar yordamida tevarak atrofda sodir bo'layotgan hamma xodisalarni baholaydi.

Adolat – tenglikning xaqqoniy va taqdirlashning zaruriy o'lchovidir. Adolat-shaxs va ijtimoiy birlikning real iqtisodiy, xuquqiy, siyosiy xolatini qayd qiladi. Adolat boshqa kategoriyalaridan farqli suratda kishining jamiyatdagi axloqiy o'zaro munosabatlarining boshqaruvchisi sifatidagi o'ziga xos xususiyati quyidagilarda ko'rinadi: u taqdirilash va talab qilishning miqdoriy o'lchovidir.

Burch-shaxsning jamiyatga yoki kishilarga nisbatan bo'lgan axloqiy majburiyatlarini ifodalaydi. Burch-mavjud jamiyat talablarini bajarishning ikki ma'naviy zaruriyati, ijtimoiy baxt-saodat extiyojlari taqazo qiladigan muayyan xulq-odob zaruriyatidir.

Or-nomus- kategoriyasi insonning jamiyatdagi o'z qimmatini anglashni hamda bu qimmatning jamiyat tomonidan tan olinishini ifodalaydi. Or-nomus axloqiy tushuncha sifatida insonda shaxsning ijtimoiy axamiyati va axloqiy qimmatini xosil bo'ladigan fazilatlarining mavjudligini ko'rsatadi.

Vijdon- odamning o'z xatti-harakatiga baho berishdir yoki boshqacha kishilar oldidagi ma'naviy javobgarligidir. Vijdon-insonning o'z xulqini muayyan axloq normalari nuqtai-nazaridan turib axloqiy baholashi va nazorat qilishi, o'z xatti-xarakatlarini va bu xatti-xarakatlarga bog'liq bo'lgan his tuyg'ularini, kechinmalarini o'zi tahlil qilishdir. Vijdon kategoriyasi baho, buyruq, motiv va emotsion xarakterga ega

Baxt- bu insonning o'z ijodiy kuchlarning to'lib-toshib yotganligidan ularning ijtimoiy va shaxsiy maqsadda qo'llanishidan yuksak darajada ma'naviy qoniqishi va bu tuyg'uning anglab olinishidir. Baxt xar-xil bo'ladi. Baxtni xar kim xar xil tushunadi. Baxtga erishish yo'li bilim va mehnatdir. Inson doimo o'z hayotida baxtli bo'lishga intilib yashaydi.

Hayotning ma'nosi -insonning maqsadli, ma'noli mantiqli yashash tarzi tushuniladi. Xar bir inson hayotida o'z o'rniga ega bo'lishiga xarakter qiladi. Inson hayotida doimo yaxshi yashashni niyat, yaxshi maqsad uchun yashaydi. Hayotning ma'nosi kategoriyasining mohiyati insonlarni o'z o'rnini hayotdan tolishiga yordam beruvchi kategoriyadir.

Vatanparvarlik- vatanga muxabbat, unga sodiqlik, uning manfaatlari yo'lida xizmat qilishga tayyor turish demakdir.

Vatan – arabcha ona-yurt, o'lka dekmakdir. Vatan bu odam tug'ilgan, tarbiyalangan, mehnat quvonchini totgan, odam manub bo'lgan, xalq tarixi bilan bog'langan xamda tarixan shakillangan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy muxitdir. Vatan ko'p qirrali tushunchadir.

Insonparvarlik (Gumanizm). Gumanizm -lotincha insonga xos, insoniy degan manoni anglatadi. Gumanizm insonparvarlik degani. Insonparvarlik insonga bo'lgan mexribonlik chuqur insoniylik, g'axo'rlik inson ozodligini va xar tomonlama rivojlanishini aks ettiruvchi olijanob tuyg'u. Axloq normasi xulqni belgilab beradi.

Baynalmilallik-turli xalqlar vakillarini, xalqlarni do'st, inoq, xamjihat hayot kechirishlari tushuniladi. Turli xalqlar munosabatini tartibga solib turuvchi tamoyil baynalmilallikdir. Bizning yurtimizda, 130 ga yaqin millat va elat vakillari do'stona yashamoqdalar. Chunki Prezidentimizning odilona milliy siyosati hamma millat vakillariga birdek munosabatda bo'lganligi uchun tinchlik hukm surmoqda.

Jamoaviylik – bu kishilarning birlashish xissi, ijtimoiy munosabatlar rivojlanishi davomida tarixan shakillanuvchi ijtimoiy hayotning asosi, birgalik sifatidir.

Axloq qoidalar - insonning xulq, fe'l-atvorini tartibga solib turuvchi axloqiy talablardir. Axloq qoidalar insonga jamiyat tomonidan qo'yiladi. Axloq qoidalar ijtimoiy mazmunga ko'ra umuminsoniy xarakterga ega bo'ladi

Mehnatga ongli munosabat-mehnat insonning moddiy va ma'naviy boyliklar yaratishga, umuminsoniy taqqiyotini ta'minlashga qaratilgan faoliyatidir. Mehnat jarayonida ijtimoiy xamkorlik vujudga keladi, birdamlik va intizom haqidagi, muxabbat va nafrat to'g'risidagi, yaxshilik va yomonlik haqidagi tasavvur va tushunchalar shakillanadi.

Din-(arabcha-ishonch, ishonmoq)-oliy mavjudotga nisbatan munosabat, tasavvur, urf-odat va marosimlar majmui.

Komil inson-(arabcha-etuk odam)-milliy mafkuramizning asosiy g'oyalaridan biri. Shaxsni barkamol qilish orqali jamiyatni baxtli, saodatli qilish g'oyasi.

Madaniyat-(arabcha "shaharga oid")-kishilarni tabiat va borliqni o'zlashtirish jarayonida yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklari majmui.

Mafkur-(arabcha-fikrlash, fikrlamoq)-jamiyatning, davlatning, ijtimoiy guruhning yaqin va uzoq kelajakka mo'ljallangan fikrlar, g'oyalar va qarashlar majmui.

Ma'naviyat-(arabcha-ma'nolar majmui)-kishilarning falsafiy, huquqiy, estetik, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui.

Ma'rifat-(arabcha-bilmoq)-kishilarni ongini, bilimini oshirishga qaratilgan faoliyat.

Mustaqillik-(arabcha-tobe emaslik, ixtiyori o'zidalik, qaram emaslik)-erkin va ozod ravishda boshqalarning rahbarligisiz ish yurita bilish. Davlat mustaqilligi esa-muayyan davlatning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy erkinligidir.

Sharq Renessansi – VII-XII va XIV-XV asrlarda arab Sharqida va Markaziy Osiyoda ma'naviy va madaniy qadriyatlarining tiklanishi, falsafa va fan, adabiyot va san'atning jadal rivojlanishi davri.

Qadriyatlar-borliq, jamiyat, narsa-hodisalar, modiy va ma'naviy boyliklarni ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha.

MUNDARIJA

Soʻz boshi	3
Ishchi dastur	3
Fan yuzasidan reyting ishlanma va baholash mezonlari	5
Fanni oʻqitish uchun taʼlim texnologiyalarini ishlab chiqishning kontseptual asoslari	6
Lektsiyalar kursi	8
Seminar mashgʻulotlari	37
Talabalar mustaqil ish topshiriqlari	39
Referat mavzulari	40
Axloq fanidan konsept qilinadigan adabiyotlar roʻyxati	41
Axloq fanidan test	42
Nazorat savollari	47
Oʻtilgan mavzular boʻyicha yakuniy xulosalar	48
Fan boʻyicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar	48
Informatsion taʼminot	48
«Axloqshunoslik» fanidan glossariy	50

